

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TABIYOT FANLARI» FAKULTETI
«Geografiya va uni o‘qitish metodikasi» kafedrası**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

_____ E.R. Yuzlikayeva

« ____ » _____ 2014 yil

5140500 - «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi
401-guruh talabasi

BOYMATOV BAXROM ESHMAMATOVICHning

“Rossiya Federatsiyasiga iqtisodiy geografik tavsif”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya
va uni o‘qitish metodikasi»
kafedrası o‘qituvchisi

_____ A. Nugmanova

Ilmiy maslaxatchi: «Geografiya
va uni o‘qitish metodikasi»
kafedrası dotsenti, g.f.n

_____ N. Safarova

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Geografiya va uni o‘qitish
metodikasi» kafedrası mudiri

_____ g.f.n. N.R. Alimqulov

« ____ » _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3-5
I bob. MAMLAKAT IQTISODIY GEOGRAFIK O'RNINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI	6
1.1. Rossiya Federatsiyasining jahon mamlakatlari orasida tutgan o'rni.....	6-13
1.2. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	13-
	21
1.3. Aholisi va mehnat resurslari.....	21-25
II bob. ROSSIYA IQTISODIYOTIGA UMUMIY TAVSIF	26
2.1. Mamlakat iqtisodiyoti tuzulmasi.....	26-46
2.2. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari.....	46-53
2.3. Iqtisodiy rayonlari va ularga iqtisodiy geografik tavsif.....	54-64
III bob. „ ROSSIYA FEDERATSIYASI” MAVZUSINI O’QITISH TEKNOLOGIYASI	65
3.1. „ Rossiya Federatsiyasi” mavzusini o’qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	65-69
3.2. „ Rossiya Federatsiyasi” mavzusini o’qitish metodikasi.....	70-74
3.3. Tajriba – sinov ishlarining natijalari.....	74-79
XULOSA	80-81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	82-83

KIRISH

Biror mamlakatni iqtisodiy geografik o'rniga tavsif berishda uning iqtisodiy geografik o'rnini o'rganib chiqish kerak. Chunki har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanishi uchun barcha omillar, jumladan iqtisodiy geografik o'rnini va giosiyosiy sharoiti katta ahamiyatga ega.

“Mamlakatimizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning havfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamlil bir qator vazifalar bor, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir”. (I.Karimov)

“ Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” “O'zbekiston”, 2010,18 - bet) [1-2]

Dolzarbligi: “Rossiya Federatsiyasiga iqtisodiy geografik tavsif”i mavzusi hozirgi kunning muhim va dolzarb mavzularidan biridir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy geografik o'rnini, uning iqtisodiyotini rivojlanishida, Yevropa mintaqasi mamlakatlari va dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida tutgan o'rnida katta ahamiyatga egadir.

Albatta bizning mavzuimiz Rossiya Federatsiyasi ekan, bu mamlakatning iqtisodiyotini rivojlanishiga oxirgi yillarda bo'lib o'tgan ichki va tashqi majoralar o'z ta'sirini ko'rsatganligini o'rganib chiqdik. Lekin shunga qaramay mamlakat hozirda iqtisodiy jihatdan rivojlanib bormoqda. Bunga sabab undagi mavjud tabiiy boyliklar va ilmiy texnika taraqqiyotida Rossiya Federatsiyasi ko'pgina sohalar bo'yicha etakchi o'rinda ekanligi. Jumladan dunyoda qazib olinadigan tabiiy gazning 35 foizi (1-o'rinda), neftning 13 foizi (2 o'rinda), olmosning 21 foizi (2 o'rinda), toshko'mirning 30 foizi (3 o'rinda) Rossiyaga to'g'ri keladi. Elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya dunyoda AQSh, Yaponiya va Xitoy Xalq Respublikasidan keyin 4 - o'rinda turadi (2012 - yilda 940 mlrd. kvv/s). Elektr quvvatining eng katta qismi issiqlik stansiyalarida ishlab chiqariladi (70%

dan ortiq). Elektr balansida gidravlik elektr stansiyalarning hissi - 18% ga, atom elektr stansiyalarning hissi 12% ga teng. 2012 - yilda 55.5 mln tonna cho'yan, 58,9 mln tonna po'lat eritildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Rossiya Yaponiya, Xitoy va AQShdan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi. Rossiya o'rmonlarga juda boy va ular hudud bo'yicha keng tarqalgan. Umumiy o'rmon maydonlari 766 mln gektarni tashkil etadi (O'rmon bilan ta'minlanganligiga ko'ra dunyoda 1- o'rinda. Deyarli dunyo o'rmonlari va yog'och zahirasi 1/5 qismini tashkil qiladi).

Bitiruv Malakaviy ishning ob'ekti: Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy geografik o'rni.

Bitiruv Malakaviy ishning predmeti: Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy geografik o'rniga tavsif berish.

Bitiruv Malakaviy ishning maqsadi: Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyoti hamda mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi tutgan o'rnini o'rganish.

Bitiruv Malakaviy ishning vazifalari:

- Mamlakatning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni;
- tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari;
- aholisi va mehnat resurslari;
- sanoati tarmoqlari;
- qishloq xo'jaligi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganib chiqish va bu haqida bilimga ega bo'lish.

Mazkur Bitiruv malakaviy ishi jami 83 bet, 3 bob, 9 bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Malakaviy ishning birinchi bobi, Rossiya Federatsiyasining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va bunda mamlakat tabiiy sharoiti, tabiiy resurslarining ahamiyati haqidagi ma'lumotlarga qaratilgan.

Mamlakat sanoati, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va ularning iqtisodiyotidagi ahamiyatiga oid ma'lumotlarni o'rganish e'tiborga olingan. Shu bilan birga tashqi iqtisodiy aloqalarida qaysi mamlakatlar bilan eksport, import aloqalar olib borilayotganligi va Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy rayonlari haqida ma'lumotlar ikkinchi bobda berilgan.

Malakaviy ishning uchinchi bobi,, Rossiya Federatsiyasi'' mavzusini o'qitish texnologiyasiga qaratilgan bo'lib, unda dars o'tish jarayonida qanday metodlardan foydalanish mumkinligi yoritilgan. [8]

Xulosa qismida maqsaddan kelib chiqib, berilgan vazifalarni o'rganish, jadvallar, statistik ma'limotlar tahlil qilish orqali olingan natijalar yoritilgan.

I-BOB. MAMLAKAT IQTISODIY GEOGRAFIK O'RNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

1.1. Rossiya Federatsiyasining jahon mamlakatlari orasida tutgan o'rni.

Maydoni - 17075, 4 mln km².
Aholisi –143 347 000 mln. kishi.(2013)
Davlat tuzumi - Federativ respublika.
Maydoni kattaligi jihatdan jahonda
1- o'rinda,
Aholisi soniga ko'ra 9 - o'rinda
turadi.



Rossiya Federatsiyasining umumiy maydoni 17 075,400 km². bo'lib, u bu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda 1- o'rinda turadi. Aholisi esa 143, 347 000 kishi bu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda 9 - o'rinda turadi. Rossiya janub va janubi – sharqda - Xitoy (chegara uzunligi – 3645 km), KXDR (19 km), Mongoliya (3485 km), Qozog'iston (6846 km), Gruzuya (723 km), va Ozorbayjon (284 km), Janubi – g'arbda – Ukraina (1576 km), g'arbda – Finlyandiya (1340 km), Belarus (959 km), Estoniya (294 km), Latviya (217 km), va Norvegiya (196 km), bilan chegaradosh. Rossiyaning Kaliningrad viloyati Boltiqbo'yidagi Po'lsha (232 km), va Litva (280,5 km) bilan chegaradosh. Rossiya chegaralarining umumiy uzunligi bo'yicha dunyoda eng katta bo'lib, u 58,4 ming km.ni tashkil etadi, bunda dengiz chegaralari quruqlik chegaralaridan ikki marta uzun. Quruqlik chegarasi 20 096,5km, dengiz chegarasi 38807.5 km.ni tashkil etadi. Rossiya quruqlikda 14 ta dengiz orqali 12 ta davlat bilan chegaradosh (2013- yil) [6]

Mamlakatning shimoliy chegaralari to'liq Shimoliy Muz okeani dengiz suvlari bo'ylab o'tgan. Sharqiy chegaralar esa Tinch okeani dengiz suvlari bo'ylab o'tgan. Bu erda Rossiya dengiz suvlari orqali yaqin qo'shinlari AQSH va Yaponiya mamlakatlaribilan chegaradosh.

Mamlakat g'arbda ham dengiz chegaralariga ega. Bu erda Boltiq dengizi suvlari Rossiyani Yevropa davlatlari bilan bog'lab turadi. Rossiyaning Janubi-g'arbiy chegaralari Qora va Azov dengizlari bo'ylab o'tgan. Mamlakatning yaqin xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan dengiz chegaralari Kaspiy dengizi suvlari orqali o'tgan.

Rossiya Federatsiyasining quruqlik chegaralari ham katta masofalarga cho'zilgan. (20 ming km dan ortiq). Rossiya Federatsiyasijami 16 ta davlat bilan chegardosh.

Rossiya shimoli-g'arbda quruqlik chegaralari orqali Norvegiya, Finlandiya, Estoniya, Latviya, Litva davlatlari (1000 km) bilan chegaradosh. G'arbiy chegaralar Belarussiya va Ukraina davlatlari bilan janubda esa Gruziya, Ozarbayjon va Qozog'iston (eng uzun chegarasi 7 ming km.dan ortiq) davlatlari bilan chegaralanadi. Janub va janubi-sharqda Mongoliya va Xitoy bilan, janubi-sharqda esa Primorye o'lkasi orqali Rossiya Federatsiyasining 17 km.li masofada Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan davlat chegarasi o'tgan.

Rossiya Federatsiyasi hududi 3 ta okean havzasiga qarashli 12 ta dengiz, jumladan, Boltiq, Qora va Azov (Atlantika okeani), Barents, Oq, Kara, Laptevlar, Sharqiy - Sibir va Chukotka (shimoliy muz okeani), Bering, Oxota, Yapondengizlari (Tinch okeani), shuningdek, hech bir okeanga tutashmagan Kaspiy dengizi bilan o'ralgan.

Rossiya Federatsiyasi - Yevropa va Osiyo qit'alarida joylashgan dunyoning maydon jihatdan eng katta davlati. Umumiy quruqlik maydonining 11,4 % ni egallaydi. Shimoldan janubga 4 ming km.ga, g'arbdan sharqqa qarab esa 9 ming km.ga cho'zilgan.

Rossiya davlat chegarasining uzunligi 60,9 ming km bo'lib, shundan quruqlik chegarasi 14,5 ming km, dengiz chegarasi 38,8 ming km, daryo chegarasi 7,1 ming km, ko'l chegarasi 0,5 ming km.

Rossiya Federatsiyasi — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar orasida maydonining kattaligi va aholisining soni bo'yicha eng yirik suveren davlatidir. Rossiya ulkan tabiiy, iqtisodiy va ilmiy imkoniyatlarga ega mamlakat.

Rossiya tabiiy gazning sanoat zahiralari va uni qazib olish hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Dunyoda qazib olinadigan tabiiy gazning 35 foizi (1-o'rinda), neftning 13 foizi (2 o'rinda), olmosning 21 foizi (2 o'rinda), toshko'mirning 30 foizi (3 o'rinda) Rossiyaga to'g'ri keladi. Elektr - energiya ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya dunyoda AQSh, Yaponiya va Xitoy Xalq Respublikasidan keyin 4 - o'rinda turadi (940 mlrd. kvt/s). Elektr quvvatining eng katta qismi issiqlik stansiyalarida ishlab chiqariladi (70% dan ortiq). Elektr balansida gidravlik elektr stansiyalarning hissasi – 18% ga, atom elektr stansiyalarning hissasi 12% ga teng. Shuningdek 42 mln. tonna cho'yan, 51,6 mln. tonna po'lat eritiladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Rossiya Yaponiya, Xitoy va AQShdan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi. Rossiya o'rmonlarga juda boy va ular hudud bo'yicha keng tarqalgan. Umumiy o'rmon maydonlari 766 mln.gektarni tashkil etadi, (O'rmon bilan ta'minlanganligiga ko'ra dunyoda 1 - o'rinda. Deyarli dunyo o'rmonlari va yog'och zahirasining 1/5 qismini tashkil qiladi). [5]

Rossiya katta er fondiga ega — 17075,400mln.km² ga, biroq qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar atigi 209,0 mln. gektarni tashkil etadi (qishloq xo'jaligi erlarining maydoni bo'yicha jahonda Xitoy, AQSh dan keyingi 3 - o'rinni egallaydi).

Temir yo'l transporti — Rossiyadagi asosiy transport turi hisoblanadi. Temir yo'llarning uzunligi bo'yicha Rossiya dunyoda AQSh dan keyingi 2 - o'rinda turadi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi taxminan 87 180 ming km, ularning 1/3 qismi elektrlashtirilgan. Tashqi savdo aylanmasisalkam 210 mlrd.dollarni tashkil

qiladi. Jahon tovar aylanmasida Rossiyaning hissasi 1,4% ni tashkil qiladi. Sanoati rivojlangan G'arb davlatlarining Rossiya bilan bo'lgan savdo aloqalari kengaymoqda (50 — 60% gacha). Rossiyaning savdodagi etakchi hamkorlari Germaniya, Xitoy, Italiya, Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniyadir. Rossiya tashqi savdo aylanmasining deyarli yarmi mana shu davlatlar zimmasiga tushadi.

YAMD ning 60 foizi va sanoat ishlab chiqarishining 2/3 qismi Rossiyaga to'g'ri keladi. Rossiya xalq xo'jaligi keng tarmoqlidir. Rossiya Sanoat mahsuloti hajmining 1/3 qismi yoqilg'i -energetika tarmoqlariga to'g'ri keladi. Energetika tarmog'i ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining, jamiyat moddiy-texnika bazasini yaratishning asosi hisoblanadi. Rossiyaning yoqilg'i energobloklari tuzilmasi strukturasi dayoqilg'ini qazib chiqarish va ishlatishning taxminan 70% i neft va gazga to'g'ri keladi. [3]

Poytaxti – Moskva shahri. Ma'muriy jihatdan 83 ta sub'yekt: 21 ta Respublika: Adigeya, Boshqirdiston, Buryatiya, Dog'iston, Ingushiya, Kabarda-Balkariya, Kareliya, Kami, Mariy El, Mordoviya, Oltoy, Saxa(Yakutiya), Tatariston, Tuva, Udmurtiya, Xakasiya, Shimoliy Osetiya, Chechiniston, Chuvashiya, Qalmoq, Qorachoy-Cherkasiya.

9 ta o'lka:Zabaykal, Kamchatka, Krasnodar, Krasnoyarsk, Oltoy, Perm, Primorye, Stavropol, Xabarovsk.

46 ta viloyat: Amur, Arxangel'sk, Astraxan, Belgrad, Bryarsk, Vladimir, Volgograd, Vologda, Voronej, Ivanovo, Irkutsk, Kaliningrad, Kaluga, Kemerovo, Kirov, Kostroma, Kurgan, Kursk, Leningrad, Lipetsk, Magadan, Moskva, Murmansk, Nijniy - Novgorad, Novgorad, Novosibirsk, Omsk, Orenburg, Oryol, Penza, Pskov, Rostov, Ryazan, Samara, Saratov, Saxalin, Sverdlovsk, Smolensk, Tambov, Tver, Tomsk, Tula, Tyumen, Ulyanovsk, Chelyabinsk, Yaroslavl.

2 ta federal shahar: Moskva, Sankt-Peterburg.

1 ta avtonom viloyat: Yahudiy.

4 ta avtonom okrug: Nenets, Xanti – Mansi - Yugra, Chukotka, Yamal-Nenetsga bo'linadi. Rossiya Federatsiyasida 1091 ta shahar, 1922 ta shaharcha bor.

Rossiyada 2000 - yil Markaziy, Shimoliy-G'arbiy, Janubiy, Volga bo'yi, Ural, Sibir, Uzoq Sharq federal okruglari tashkil etildi.

Rossiya Federatsiyasining hududiy – ma'muriy bo'linishi

Ma'muriy jihatdan 83 ta sub'yekt: 21 ta Respublika, 9 ta o'lka, 46 ta viloyat, 2 ta federal shahar, 1 ta avtonom viloyat, 4 ta avtonom okruglarga bo'linadi. [6]

1 - jadval

№	Respublikalar	O'lkalar	Viloyatlar	Federal shaharlar	Avtonom viloyat	Avtonom okruglar
1	Adigeya	Zabaykal	Amur	Moskva	Yahudiy	Nenets
2	Boshqirdiston	Kamchatka	Arxangel'sk	Sankt-Peterburg		Xanti-Mansi-Yugra
3	Buryatiya	Krasnodar	Astraxan			Chukotka
4	Dog'iston	Krasnoyarsk	Belgarad			Yamal-Nenets
5	Ingushiya	Oltoy	Bryarsk			
6	Kabarda-Balkariya	Perm	Vladimir			
7	Kareliya	Primorsk	Volgograd			
8	Komi	Stavropol	Vologda			
9	Mariy El	Xabarovsk	Voronej			
10	Mordoviya		Ivanovo			
11	Oltoy		Irkutsk			
12	Saxa (Yakutiya)		Kaliningrad			
13	Tatariston		Kaluga			
14	Tuva		Kemerovo			
15	Udmurtiya		Kirov			
16	Xakasiya		Kostroma			
17	Shimoliy Osetiya		Kurgan			
18	Chechiniston		Kursk			
19	Chuvashiya		Leningrad			
20	Qalmoq		Lipetsk			
21	Qorachoy-Cherkasiya		Magadan			
22	Qirm		Moskva			
23			Murmansk			

24			Nijniy- Novgorad			
25			Novgorad			
26			Novosibirsk			
27			Omsk			
28			Orenburg			
29			Oryol			
30			Penza			
31			Pskov			
32			Rostov			
33			Ryazan			
34			Samara			
35			Saratov			
36			Saxalin			
37			Sverdlovsk			
38			Smolensk			
39			Tambov			
40			Tver			
41			Tomsk			
42			Tula			
43			Tyumen			
44			Ulyanovsk,			
45			Chelyabinsk			
46			Yaroslovl			

Rossiya Federatsiyasining ma'muriy – hududiy bo'linishi

1 - chizma



Iqtisodiy geografik rayonlar kartasi.

1- rasm



(Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy rayonlari kartasi)

Avtonom okrug:

1)Nenesk, 2)Xanti–Mansiy-Yugra, 3)Chukotka, 4)Yamola- Nenesk

2- rasm



Davlat tuzumi. Rossiya Federatsiyasi – boshqarishning Respublika shakliga ega bo’lgan demokratik federativ Respublika. Rossiya Federatsiyasi 1991 – yil 24 – avgustda o’z mustaqilligini e’lon qildi.

Amaldagi Konstitutsiyasi 1993 - yil 12 - dekabrda qabul qilingan. Davlat boshlig’i prezident. 2012 yildan Rossiya prezidenti etib V.V. Putin saylandi. [6]

1.2. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari va ularning xo’jalikdagi ahamiyati.

Mamlakat Yevrosiyo materigining shimoliy qismida joylashgan. Rossiya Yevropa qismi Sharqiy Yevropa tekisligining katta qismini, Kavkazoldi va Katta Kavkaz tog'larining shimoliy tizmalarini va Ural tog'larini o'z ichiga oladi. Rossiyaning Osiyo qismiga esa Sibir va Uzoq Sharq rayonlari kiradi.

Mamlakat hududi shimoldan janubga ayniqsa g'arbdan sharqqa (9 ming km) katta masofaga cho'zilgan. Rossiya hududining deyarli barcha qismi sharqiy yarim

sharda joylashgan. Faqat Vrangel oroli va Chukotka yarim oroli g'arbiy yarim sharda joylashgan.

Rossiya Federatsiyasining tabiiy geografik kartasi

3-rasm



Tabiati. Rossiya Federatsiyasi hududi meridian bo'ylab 2.5.4 ming km ga, g'arbdan sharqqa 9 ming km ga cho'zilgan. Mamlakatning eng g'arbiy nuqtasi Polsha bilan bo'lgan chegarada (Kaliningrad viloyati), sharqiy nuqtasi Bering bo'g'ozidagi Ratmanov orolida, chekka shimoliy nuqtasi Frants-Iosif Yeri arxipelagidagi Rudolf orolida, Rossiya Federatsiyasi hududining 45% i o'rmon, 4% i suv, 13% i qishloq xo'jaligiga yaroqli erlar, 19% i bug'u yaylovlari, 19% i boshqa erlardir. [8]

Relifi. Rossiya Federatsiyasi maydonining qariyb 70% i tekislik. G'arbda Sharqiy Yevropa (yoki Rossiya) tekisligi joylashgan. Unda balandligi 250 - 400 metr Valday, O'rta Rossiya, Volga bo'yi, Bugulma-Belebey, Yuqori Kama va boshqa qirlar, Oka-Don, Kaspiybo'yi va boshqa pasttekisliklar bilan tutash. Undan sharqda Ural tog' tizmasi, so'ng G'arbiy Sibir tekisligi boshlanadi. Yenisey va Lena daryolari oralig'ida O'rta Sibir yassitog'ligi, sharqda Markaziy Yakutiya

pasttekisligi bor. Rossiya mamlakati sharqida va janubida tog'liklar ko'proq. Yevropa qismida Katta Kavkaz tog'ining shimoliy yon bag'rida tizma tog'lar (Rossiyadagi eng baland nuqta – Elburs tog'i, 5642 m) joylashgan. Sibirdagi tog' tizmalari – Oltoy, Kuznetsk Olatovi, G'arbiy Sayan tog'lari, Tuva, Baykalbo'yi, Baykal ortidagi tog'lar va Stanovoy tizmasi Rossiya Federatsiyasining janubiy chegarasi bo'ylab o'tadi. Sibirning shimoliy - sharqi (Verxoyansk va Cher tizma tog'lari), Uzoq Sharq (Chukotka va Karyak tog'lari)da o'rtacha baland likdagi tizmalar ko'proq uchraydi. Tinch okean sohili bo'ylab cho'zilgan Kamchatka va Kuril orollaridagi tog'lar harakatdagi vulkanlar otilib turadi.

Geologik tuzilishi. Rossiya Federatsiyasi hududi Sharqiy Yevropa platformasining anchagina qismini, butun Sibir platformasini, G'arbiy Sibir plitasini, Janubiy Sibir, Verxoyansk-Chukotka burmali oblast, Koryak yassi tog'lari, Kamchatka, Kuril orollari, Primorye va Saxalin burmali mintaqalarini egallaydi. Qadimiy platformalar yuqori proterozoy davrigacha bo'lgan kristalli fundament (zamin) dan iborat bo'lib, dengiz tubidagi qadimiy cho'kindi va vulqon jinslaridan tashkil topgan va keyinchalik burmalanib, metamorfizmga uchragan. Kareliya burmalanish davri tugagach, Sharqiy Yevropa va Sibir platformalari zaminning yuzasi denudatsiya natijasida tekislanib, cho'kindi jinslar ostida qolgan. Proterozoy davri o'rtalarigacha qadimiy platformalarni o'rab turgan burmali oblastlar o'rnida okean bo'lib, asta-sekin geosinklinal tizimlari tarkib topa boshlagan va turli yoshdagi burmalangan mintaqalar – Baykal, Kaledon, Gertsin, Kimmeriy burmalanishllari hosil bo'lgan. Kavkazda geosinklinal rivojlanish jarayoni Alp burmalanish davrida tugagan. Kuril va Komandor orollarida, Oxota, Bering dengizlari botiqlarida geosinklinal rivojlanish hali tugamagan.

Iqlimi. Iqlimi deyarli hamma joyda kontinental (chekka shimoliy - g'arbda dengiz iqlimi), Sibir va Uzoq Sharq shimolida keskin kontinental, janubda musson iqlim (qishi sovuq, qor kam yog'adi, yozi mo'tadil iliq). Qishda Rossiya Federatsiyasi hududi ustidan yuqori atmosfera bosimi hukmron bo'ladi. Yanvarning o'rtasida harorat Yevropa qismining g'arbida va Kavkaz shimolida 0-5°C, Saxasharqida - 40°C, -50°C, jumladan, Oymyakonda -72.2°C gacha. Yozda atmosfera bosimi

pasayadi, shu sababli bu mavsum nisbatan iliq, janubda issiq iyulning o'rtacha temperaturasi 1°C dan (Sibir shimolida) 24°C -25°C gacha (Kaspiybo'yi pasttekisligida) kuzatiladi. Eng ko'p yog'ingarchilik Kavkaz tog'larida (yiliga 3200 mm gacha), Uzoq Sharq janubida (1000 mm gacha) va Sharqiy Yevropa tekisligining o'rmon zonasida (850 mm gacha). Kaspiybo'yi pasttekisligining yarim cho'l joylarida juda oz – yiliga 170 mm ga yaqin yog'in tushadi. Qor qoplami mamlakat janubida 60 - 80 kun davom etsa, Chekka shimolida 250 - 260 kunga boradi. Deyarli hamma joyda kontinental (chekka shimoliy-g'arbda dengiz iqlimi), Sibir va Uzoq Sharq shimolida keskin kontinental, janubda musson iqlim (qishi sovuq, qor kam yog'adi, yozi mo'tadil iliq). [7]

Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari

4-rasm.



Jahon mineral resurs zahirasida Rossiya Federatsiyasining tutgan o'rni: Neftning 13% i tabiiy gazning 35% i ga yaqini, ko'mirning 10% i (shu jumladan, toshko'mirning 7% i qo'ng'ir ko'mirning 30% i) Rossiya Federatsiyasi hududida mavjud.

20 ming ma'dan konlari mavjud bo'lib, 40% i dan mineral resurslar qazib olish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasi eksport tushumining 70% ini mineral resurslar va ulardan birlamchi qayta ishlangan mahsulotlar beradi.

Mineral resurslari: Rossiya Federatsiyasi juda boy mineral - xomashyo zahiralariga ega bo'lgan mamlakat. Dunyodagi 7 ta eng yirik ko'mir havzasidan 5 tasi Rossiya Federatsiyasida joylashgan. Rossiya Federatsiyasida dunyodagi temir rudasi, beriliy zahirasi 30% i, neftning 17 – 18% i, gaz, olmos, niobiy, tantalning 70 – 75% i, palladiyning 50% i, nikelning 40% i dan ko'prog'i, uranning 10% i mavjud. Jumladan, Uralda boksit, Shimoliy Kavkaz, O'rta va Janubiy Ural, Sharqiy Sibirda mis, Krasnoyarsk o'lkasi shimolida mis - nikel, Zabaykaliy va Uzoq Sharqda rux - qo'rg'oshin, Ural, Oltoy, Zabaykaliy va Kola yarim orolida qimmatbaho toshlar, marmar, granit, bazalt, Saxada olmos konlari, shuningdek, turli joylarda volfram, molibden, surma, simob, oltin, kumush, platina, kobalt, slyuda-mosvit, asbest kabi foydali qazilmalarning katta konlari bor. Rossiya foydali qazilma konlarga boy mamlakatdir. Mamlakat temir ruda zahiralariga boy, ayniqsa Kursk magnit - anaioliyasi (KMA) da rayonida sifatli temir rudasi ochiq usulda qazib olinmoqda.

Ural rayonidagi temir ruda konlari zahiralarini tugab borayotgan bo'lsada, u mamlakatning temir ruda qazib chiqaruvchi asosiy rayonlardan biri bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari Sibir va Uzoq Sharq rayoni ham temir rudalariga boydir.[8]

Mis rudasi konlari asosan Uralda, Kola yarim orolida, shuningdek Janubiy Sibir tog'laridajoylashgan. Sharqiy Sibirrayonida esa mis - nikel, kobalt, platina konlarining ishga tushirilishi bilan yirik Norilsk shahri qad ko'tardi.

Sibir rudali va norudali foydali qazilma konlariga boy region hisoblanadi. Aldan qalqonida oltin, temir rudasi, slyuda, asbest va bir qancha nodir metallarning zahiralarini aniqlangan va ishga tushirilgan. Saxa - Yoqitistonda olmosni sanoat asosida qazib olish yo'lga qo'yilgan. Qalay rudasi zahiralarini esa Sibir va Uzoq Sharqning turli rayonlarida topilgan.

Qo'rg'oshin - rux va volfram, molibden kabi rangli metal konlari Ural va Kavkaz tog'larda aniqlangan.

Mamlakatda kimyo sanoati xomashyosi xisoblangan bir qancha Leningrad viloyatidagi Kingisep va Kama - Vyatka fosforit konlari aniqlanib ishga tushirilgan.

G'arbiy Sibirning janubida toshko'mirning katta zahiralari aniqlangan. Kuznesk Olatovi tog'ida katta zahiraga ega bo'lgan Kuznesk toshko'mir havzasi joylashgan. Aynan ushbu havza Rossiyada kuchli o'zlashtirilgan.

Rossiyaning janubi - g'arbiy qismida Donesk ko'mir havzasi joylashgan. (Havzaning katta qismi Ukraina hududida joylashgan). Mamlakatning shimoliy - sharqiy Yevropa qismida Pechora toshko'mir havzasi (Vorkuta, Inta) joylashgan. Rossiyaning O'rta Sibir yassi tog'idagi Tingusska havzasi shuningdek Saxa Yoqutistonning Lena havzasida toshko'mirning katta zahiralari topilgan, biroq kon joylashgan hududlarning tabiiy sharoiti noqulayligi tufayli ushbu konlardan amalda foydalanilmayapti, Rossiyada yirik qo'ng'ir ko'mir konlari topilgan. Jumladan Krasnayarsk o'lkasidagi Kansk - Achinsk havzasi, Moskva yonidagi qo'ng'ir ko'mir koni va Sibirdagi istiqbolli konlar shular jumlasidandir.

Rossiyada neft XIX asrning oxirida Shimoliy Kavkazdan qazib olinib boshlandi. 1940 - yillarga kelib Volga bo'yi va Ural oldi rayonlarida neft va gaz konlarini o'zlashtirishi boshlandi, keyinchalik esa Rossiya Yevropa qismining shimoliy sharq qismidagi Timan - Pechora neft gazli provinsiyasidagi konlar o'zlashtirildi. Faqat 1960 - yillarga kelib G'arbiy - Sibir havzasidagi neft va gaz konlari jadal sur'atda o'zlashtirilishi natijasida mamlakatda neft va gaz qazib olish hajmining keskin oshishiga olib keldi. Bu erdan neft va gaz quvurlar yordamida Rossiyaning iste'molchi rayonlariga va MDH shuningdek Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yuboriladi.

Neft konlari Saxa - Yoqutiston Respublikasida ham topilgan, uni qazib olishi Saxalin orolida ham olib borilmoqda. [6]

So'ngi yillarda mamlakatning Barents dengizi shelyefida tabiiy gaz, Qora dengizi shelyefida gaz kondensati, Pechoragubasishelyefidan esa neftning yangi konlari ishga tushirildi.

Rossiya Federatsiyasi hududidan qazib olinadigan asosiy mineral resurs turlari

2 -jadval.

№	Mineral resurs turlari	Tarqalgan hududlar
	Yoqilg'i-energetika resurslari:	
1	Neft	Timan-Pechora, Volgabo'yi, Old Ural, g'arbiy Sibir havzalari.
2	Gaz	Yamburg, Urengoy(G'arbiy Sibir), Shtokman (Barens denizi), Leningrad (Kara dengizi).
3	Ko'mir	Pechora (Komi Respublikasi), Kuznesk (G'arbiy Sibir), Tunguss(O'rta Sibir), Lena(Yakutiya) havzalari. Kansk - Achinsk (Krasnoyar o'lkasi) - qo'ng'ir ko'mir.
	Metall rudalar:	
4	Temir	Kursk magnit anomaliyasi, Kachkanar (Ural), Olenogorsk, Kovdorsk (Murmansk viloyatida.), Kostomuksh(Kareliya).
5	Oltin	Vitim, Aldan, Yenisey, Kolima daryolari bo'yidan.
6	Mis	Ural tog'i, Kola yarim oroli, Sibir.
7	Qo'rg'oshin - rux	Sadon (Shimoliy Osetiya)
8	Volfram - molibden	Tirniauz (Kabardino - Balkar).
9	Qalay	Verhoyansk, Omsukchan (Chukotka), Dalnegorsk (Uzoq Sharq).
10	Polimetall rudalar:	Dalnegorsk, Nerchinsk
	Nometall rudalar:	
11	Olmos	Mirniy (Yakutiya)
	Kimyoviy tuzlar:	
12	Fosforit	Kingisep (Leningrad), Vyatko – Kamskiy (Kirov).
13	Osh tuzi	Elton, Bosqunchoq, Kulundin ko'llari.
14	Kaliy tuzi	Solikamsk, Beryozniki(Yuqori Kama havzasi).

Ichki suvlari. Rossiya Federatsiyasida uzunligi 10 km dan oshadigan 120 mingga yaqin daryo bor. Rossiya daryolarning aksariyati Shimoliy Muz okeani havzasiga, (Shimoliy Dvina, Pechova, Ob, Yenisey, Lena, Yana, Indirka, Kolima va boshqalar), Tinch okean havzasiga (Don, Kuban, Neva va boshqalar) mansub. Yevropaning eng sersuv Volga daryosi, shuningdek, Ural va Terek Kaspiy dengiziga quyiladi. Ularning ko'pi suv, transporti va yog'och oqizishda, shahar va sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlashda, ekinzorlarni sug'orishda katta ahamiyatga ega. Rossiya Federatsiyasida 2 mln dan ortiq chuchuk va sho'r suvli ko'l bor.

Rossiyaning eng yirik ko'llari: Baykal dunyodagi suv hajmi (23000 km^3) va chuqurligi (1620 m) chuchuk suv zahirasining 1/5 qismi egallash bo'yicha eng yirik ko'ldir.

Kaspiy dengiz - ko'li, dunyoda maydon jihatdan eng yirigi (376000 km^2) Ladoga, Onega, Taymir, Rossiya Federatsiyasida 1200 ga yaqin suv ombori mavjud.

Rossiyaning yirik suv omborlari: Brastik, Krasnoyarsk, Zeya, Ust-Ilim, Boguchan, Baykal (Irkutsk), Volgograd, Ribinsk va boshqalar. Rossiya katta chuchuk suv zahiralari ega. Mamlakat hududida 2,5 mln.ta daryo va 3 mln.ta ko'l bo'lib, ular orasida dunyodagi eng katta Kaspiy va eng chuqur chuchuk ko'l Baykal ko'li joylashgan. Daryolar uch okean havzasiga qarashli, shuningdek Kaspiy ko'li ichki oqimsiz havzaga qarashlidir.

Rossiya hududining katta qismini ko'p yillik muzloq erlar egallagan. Muzloq erlarning maydoni 11 mln km^2 ni tashkil etadi. Abadiy muzloq erlar ko'p ming yil ilgari hosil bo'lgan. Muzloq qatlamlar qalinligi janubda bir necha yuz metr ga etadi. [10]

Tuproq va o'simliklari. Tuproq va o'simliklari tekisliklarda tabiat zonalariga qarab o'zgaradi. Shimoliy Muz okeani orollari va Taymir yarim oroli sohilida ibtidoiy arktika tuprog'i tarqalgan bo'lib, asosan siyrak lishaynik, mox va ko'p yillik gulli o'simliklar uchraydi. Tundra zonasida nordon tundra (gleylangan) tuprog'i tarqalgan. O'simlik turi ko'p: mox va lishayniklardan tashqari past bo'yli

butalar (pakana qayin va tol), har xil o't, mevali o'simliklar (brusnika, golubika) uchraydi.

O'rmon zonasining shimoliy qismi(tayga zonachasi)dagi podzol tuproqlarda ignabargli daraxtlar – qoraqarag'ay, oqqarag'ay, kedr va qarag'ay o'rmonlari, Yeniseydan Sahrodagi tayga tuproqlarda igna bargli tayga daraxtlari, Uzoq Sharqda esa, qoraqarag'ay va oqqarag'ay o'sadi. Tayga zonachasida (ayniqsa, G'arbiy Sibirda) botqoqlik ko'p. Taygadan janubroqda, Sharqiy Yevropa tekisligida aralash o'rmonlar bor. Rossiya chimli podzol tuproqlarda oqqayin va tog'terak, eman, zarang, qayrog'och, Sharqiy Yevropa tekisligida o'rmon zonasining chekka janubida eman, jo'ka va boshqalar. Keng bargli daraxtlar o'sadi. Sharqiy Yevropa va G'arbiy Sibirda qora va tog' kashtan tuproq, Kaspiybo'yi pasttekisligida och kashtan va qo'ng'ir, sho'rxok tuproqlar uchraydi.

Shimoliy Muz okeani orollari va Taymir yarim oroli sohilida ibtidoiy arktika tuprog'i tarqalgan bo'lib, asosan siyrak lishaynik, mox va ko'p yillik gulli o'simliklar uchraydi. Tundra zonasida gleyli tuprog'i tarqalgan.

Rossiya o'rmon resurslari zahiralari bo'yicha dunyoning istalgan mamlakatidan oldingi o'rinda turadi, biroq o'rmon resurslaridan foydalanishi darajasi bo'yicha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan orqada qolmoqda.

Rossiya katta er resurslariga ega bo'lib, er shari quruqligining $\frac{1}{7}$ qismini tashkil etadi. Mamlakat hududining yirikligiga qaramay qishloq – xo'jaligida erlarning nisbatan oz qismidan foydalaniladi. Biroq unumdor qishloq xo'jaligi erlari (haydaladigan pichanzorlar va yaylovszorlar) jami er maydonining 13 foizini egallaydi xolos. (haydaladigan erlar - 8 foizni tashkil etadi). Hududning bir qismi doimiy muzloq zonasiga to'g'ri keladi. Mamlakatning Tundra zonasi yaylov bug'ichiligi tarqalgan.[11]

1.3. Aholisi va mehnat resurslari.

Rossiya Federatsiyasining aholisi 2013 yil ma'lumotiga ko'ra 143 347 000 kishi, 2014 yilda 143 666 931 kishini tashkil etdi va 1km^2 ga 8,4 kishi to'g'ri keladi. Aholi soniga ko'ra dunyo mamlakatlari orasida 9- o'rinda. Yer shari

aholisining 2.13%i Rossiyaga to'g'ri keladi. Aholisi notekis taqsimlangan, aholisining katta qismi 79.3% i Yevropa qismida yashaydi. Urbanizatsiya darajasi 74%ni tashkil etadi. Rossiyaning yirik shaharlari: Moskva, Sankt - Peterburg , Nijniy -Novgorod, Novosibirsk, Samara, Yekaterinburg va boshqalar.

Rossiyada 180 dan ortiq millat va elat yashaydi. Rossiya aholisining katta qismini- ruslar, ya'niy jami aholining 81,5% ni tashkil etadi. Etnik guruhlar sonining eng yuqoriligi bo'yicha ruslardan keyin tatarlar turadi. Tatarlar 3,8%, Ukrainaga yondosh viloyatlarda, Moskva, Ural va Sibir janubida Ukrainlar 3%, boshqirdlar 0,9%, Chuvashlar 1,2%, Armaniylar 0,4%, Chechenlar 0,6%, Belaruslar 0,8%, Mordovaliklar 0,7% va Yahudiylar 0,4%, tashkil etadi. Kaliningrad viloyati, Moskva va Moskva viloyati, Sankt - Peterburg va Kareliyada beloruslar, Krasnoyarsk o'lkasi, Moskva va Sankt - Peterburgda latishlar (shuningdek, Omsk viloyatida latishlar, Kaliningrad viloyatida litvaliliklar), Omsk, Novosibirsk, Orenburg viloyatlari, Krasnoyarsk va Oltoy o'lkalarida nemislar, Moskva, Sankt - Peterburg, Yekaterinburg, Samara, Nijniy Novgorod, Chelyabinsk, Rostov, Saratov, Novosibirsk shaxarlarida yahudiylar, Rostov viloyati va Krasnodar o'lkasida moldovanlar, Stavropol va Krasnodar o'lkasida greklar, Krasnodar va Stavropol o'lkalarida va Rostov viloyatida armanlar ham yashaydi. Shuningdek, ozarbayjonlar, o'zbeklar, gruzinlar, qozoqlar va Rossiyaning Yevropa qismi Shimolida karellar, vepslar, ijorlar, saamlar (loparlar), komi va komipermyaklar, O'rta Volga bo'yida mari, udmurt va mordvalar, Volgabo'yining boshqa joylari va Janubiy Uralda turkiy tillarda so'zlashuvchi chuvashlar, boshqirdlar, tatarlar, shuningdek, qalmoqlar va boshqalar millat vakillari yashaydi. [5]

Rossiya aholisining milliy tarkibi.

3 - jadval

№		
1	Ruslar	81,5 %
2	Tatarlar	3,8 %
3	Ukrainlar	3 %
4	Chuvashlar	1,2 %
5	Boshqirdlar	0,9 %
6	Beloruslar	0,8 %
7	Mordovlar	0,7 %
8	Chechenlar	0,6 %
9	Armanlar va Eveneklar	0,4 %

Rossiya aholisining katta qismi – xristian (asosan-provoslav), islom, iudaizm, buddizm va boshqa dinlarga ibodat qiladi

Davlat tili — rus tili. Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi milliy respublikalarda tub joy aholisining tili ham shu respublikaning davlat tili hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasining asosiy demografik ko'rsatkichlari (2013 yil)

4 - jadval

№	Demografik jarayonlar	Demografik ko'rsatkichlar
1	Aholi soni	143,347 000mln k.
2	Tug'ilish darajasi	12,5‰
3	Tug'ilishning mutloq ko'rsatkichi	12,7 mln k.
4	O'lim darajasi	14,2‰
5	O'limning mutloq ko'rsatkichi	17,4 mln k.
6	Tabiiy o'sish	-1,7‰

7	Migratsion saldo	2
8	Migratsiyaning mutloq ko'rsatgichi	1 mln k.
9	O'rtacha zichlik	1 km ² ga 8,4 kishi
10	Urbanizatsiya darajasi	74%
11	O'rta umr ko'rish darajasi	67 yosh
12	Bir yoshgacha bolalar o'limi	17,4‰
13	Umumiy aholi tarkibida jinslar nisbati	46,3% erk. 53,7% ayol

Axoli soni

5 – jadval

№		2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Jami aholi soni	142,9	143,0	143,3	143,7
2	Shahar aholisi	105,4	105,7	106,3	106,6
3	Qishloq aholisi	37,5	37,3	37,0	37,1

Aholining tabiiy ko'payishi

6 – jadval

№		2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Tug'ilganlar	12,6	13,3	12,5	13,7
2	O'lganlar	13,5	13,3	14,2	12,9
3	Tabiiy ko'payish	-0,9	-0,0	-1,7	-1,9
4	Oilali	9,2	8,5	8,5	9,3
5	Ajrashganlar	4,7	4,5	4,5	4,3

Rossiya Federatsiyasining yosh tarkibi

Bolalar – 13% O'rta yoshlilar – 72% Qariyalar – 15%

Ayollar – 76880 ming

Erkaklar – 66176 ming


Iqtisodiy faol aholi

7 - jadval

№		2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Jami	75779	75676	75737	75967
2	Ayollar	38716	38720	38620	38740
3	Erkaklar	37063	36956	37117	37227

Iqtisodiy faol aholi tuzilmasi

2-chizma.



 - ishsizlar
 - ish bilan band aholi

II-BOB. ROSSIYA IQTISODIYOTIGA UMUMIY TAVSIF

Rossiya Federatsiyasi — industrial agrar mamlakat. Uning hududi 12 yirik iqtisodiy rayon (Shimoli, Shimoliy - G'arbiy, Markaziy, VolgaVyatka, Markaziy qoratuproq, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, Ural, G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq va Kaliningrad viloyati)ga bo'lingan. Milliy daromadda sanoatning ulushi 44,5%, qishloq xo'jaligi ulushi 10%, qurilish 11,5%, transport, aloqa, moddiy texnika ta'minoti, tayyorlov va boshqalar, tarmoqlarning ulushi 34%. Iqtisodiyotda davlatga qarashli korxonalar bilan bir qatorda xususiy, aralash korxonalar ham bor.[13]

2.1. Mamlakat iqtisodiyoti tuzulmasi

Rossiya Federatsiyasining siyosiy – ma'muriy kartasi

5-rasm.



Rossiya Federatsiyasi ko'mir, neft, tabiiy gaz qazib olishda, elektr - energiya, mineral o'g'it, gazlama, po'lat, prokat, sement ishlab chiqarishda dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Mamlakat eksporti va yoqilg'i energetika balansida neft

hamda tabiiy gazning ahamiyati katta. Neftning ko'p qismi Volgabo'yiUral regionida, G'arbiy Sibir, Rossiya Federatsiyasining Yevropa qismi Shimoliy, Saxalin va boshqa joylarda qazib olinadi. Neft xomashyosining aksariyat qismi "LUKOYL", "Slavneft", "Rosneft", "Bashneftexim" kompaniyalarining korxonalarida ishlanadi. Rossiyada qazib olingan neftning 99,5%i "Transneft" birlashmasining magistral quvurlari (jami uzunligi. 48,5 ming km) orqali tashib beriladi. Aniqlangan gaz zahiralari bo'yicha Rossiya dunyoda 1-o'rinda (32% dan ko'proq) turadi va dunyoda qazib olinayotgan gazning 30% ni ta'minlaydi. Tabiiy gazning asosiy qismi Yamal - Nenets muxtor okrugidagi Urengoy, Yamburg , Zapolyarye, shuningdek, Orenburg konlaridan olinadi. Jami gazning 94% ni "Gazprom" birlashmasi qazib chiqaradi. Magistral gaz quvurlari uzunligi 150 ming km. Ichki bozorga etkazib beriladigan gazning 15% i kommunalmaishiy sohaga, shu jumladan, aholi ehtiyojiga, qolgan qismi sanoat ishlabchiqarishga ishlatiladi. Ko'mir zahiralari 22 ta yirik ko'mir havzasida va 115 ta alohida konda joylashgan. Kuzbass va Pechora, Kansk, Achinsk, Janubiy, Yakutiya havzalari Rossiyaning eng yirik ko'mir konlaridir. Rossiyada 72 ta aksiyadorlik jamiyati va 6 ta davlat unitar korxonasi ko'mir qazib olish bilan shug'ullanadi. Ular tarkibida 114 ta shaxta va 125 taochiq kon bor. Neft va gaz bilan bir qatorda ko'mir, elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishning asosiy manbalaridan biri metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari uchun tengsiz xomashyo mavjud. 2001 - yilda Rossiyada 888 mlrd. Kvt.soat elektr energiya hosil qilindi. Barcha elektr stansiyalar Rossiyaga tutash elektr - energetika tizimiga birlashgan. Unga qarashli magistral elektr liniyalari Rossiya energetika va elektrlashtirish ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati ("IES Rossiya") boshqaradi. Kimyo va neft kimyosi sanoatida plastmassa, kimyoviy tola, mineral o'g'it, sulfat kislota, sintetik smola va kauchuk, avtopokrishka, lakbo'yoq, agrosanoat majmuasi va tibbiyot sanoati uchun turli moddalar ishlab chiqariladi. Uning yirik korxonalari xomashyo manbalariga yaqin joylar - Perm viloyati, Tatariston, Boshqirdiston, G'arbiy Sibir, Uralda qurilgan. Keyingi vaqtlarda xomashyo manbalaridan uzoqroq bo'lsa ham, iste'molchilarga yaqin joylarda kimyo korxonalari qurila boshladi. Bu korxonalar

"Akron" (Novgorod viloyati), "Yaroslavl shinazdi", "Stavropolpolimer", "Voskresensk mineral o'g'it" (Moskva viloyati), "Era" va "Fosforit" (Leningrad viloyati), "Kuybishevazot" va "Volgapromxim" (Samara viloyati) aksiyadorlik jamiyatlari hamda Angara neft kimyosi kompaniyasi va boshqalar tarkibiga kiradi. Metallurgiya mamlakat sanoatining eng rivojlangan tarmoqlaridan biridir. Rossiyauning to'liq siklli korxonalar Ural (Magnitogorsk, Chelyabinsk, Nijniy Tagil), Markaziy iqtisodiy rayonlarida (Lipetsk, Tula) va G'arbiy Sibirda (Novokuznetsk) joylashgan bo'lib, cho'yan, po'lat, tayyor prokat ishlab chiqaradi. Qalay, mis, qo'rg'oshin, rux, alyuminiy, volfram, nikel, molibden rangli metallurgiyaning eng muhim mahsulotlaridir. Rossiyaning asosiy markazlari: Norilsk, Krasnoyarsk, Irkutsk, Sayanogorsk va boshqalar Rossiya mashinasozlik va metall ishlash sanoati korxonalar Rossiyaning hamma iqtisodiy rayonlarida mavjud. XX asr oxiri XXI asr boshlarida energetika, transport, kimyo, neft mashinasozligi, aviatsiya va raketakosmos sanoati, radioelektronika, elektrotexnika sanoati mashinasozligi, elektron sanoati va kemasozlik ayniqsa tez rivojlandi. Stanoksozlik va asbobsozlik sanoati yangi turdagi serunum asbobuskunalar ishlab chiqarishni ko'paytirdi. Rossiyaning 72 ta subyektida mudofa sanoati tarmoqlarining 1700 korxonalar va tashkilotlari bor. Rossiya dunyodagi yog'och zahiralarning 22% Rossiyaga to'g'ri keladi. Rossiya o'rmon sanoati yog'och tayyorlash, yog'ochsozlik, sellyulozaqog'oz, gidroliz va yog'och kimyosi tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Arxangelsk, Siktivkar, Yenisey, Bratsk, Amur o'rmon sanoati majmualari barpo etilgan. Qurilish materiallari sanoati markazlari: Ural, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz va Markaziy iqtisodiy rayonlaridir.

Yengil sanoatida to'qimachilik etakchi o'rinda. Uning yirik markazlari bo'lgan Ivanovo, Moskva, Yaroslavl, OrexovoZuyevo, Tver shaharlarida ip, zig'ir, shoyi, jun gazlamaning aksariyat qismi ishlab chiqariladi. Barcha iqtisodiy rayonlarda aholining ehtiyojlariga qarab va xomashyo manbalari imkoniyatlariga mos ravishda oziq-ovqat sanoati rivojlantirilgan. Go'sht, sariyog'i pishloq, konserva, qand, yog' zavodlari qurilgan. Shimoliy va Uzoq Sharqda, Qora, Azov va Kaspiy dengizlari atrofida yirik baliq sanoati korxonalar mavjud.

Sanoati

Yoqilg'i-energetika sanoati -mamlakatning moddiy-texnika bazasini yaratishda, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Rossiya yoqilg'i-energetika balanisida neft va tabiiy gaz hissasi 70 foizini tashkil etadi.

Neft sanoati- Rossiya XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan. O'sha vaqtlarda Neft asosan Kavkazning Boku (Apsheon) va Shimoliy Kavkaz rayonlarida rivojlanmoqda. Birgina G'arbiy Sibir rayonlarida 300ga yaqin neft va gaz konlari aniqlanib ishga tushirilgan. G'arbiy Sibirdan qazib olinayotgan neft yuqori sifatga ega. Volga-Ural havzasi mamlakatlarida neft qazib olish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Neft konlari mamlakatning Tatariston, Boshqirdiston, Udmurdiya, Respublikalari va Samara, Perm va boshqa viloyatlarida qidirib topilgan. Shuningdek Timan-Pechora neft gaz oblasti Komi Respublikasi yirik neft va gaz zahiralariga ega.[3]

Mamlakatning Shimoliy Kavkaz rayoni Dog'iston, Grazniy, Stavropolv va Krasnodar neft - gaz oblastlariga ajratilgan.

Rossiyaning Uzoq Sharq rayonida ham neftning yirik zahiralari qidirilib topilgan, bu erda Saxalin orolida neft konlaridan neft qazib olinmoqda.

Mamlakatda qazib olinayotgan neftning katta qismi neft quvurlari yordamida iste'molchi rayonlarga etkazib beriladi. Rossiyada neft quvurlarining uzunligi 70 ming km atrofida bo'lib, ular neft qazib oluvchi rayonlarini mamlakatning barcha qismi bilan bog'laydi. Mamlakatda qazib chiqarilayotgan neft MDH Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga eksport qilinadi.

Gaz sanoati - zahiralari bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda, qazib olish bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi.

Mamlakatdagi asosiy gaz xomashyosi G'arbiy Sibirning shimolida, Shimoliy Kavkaz, Ural rayoni, Quyi Volga bo'yi, Komi Respublikasi, Saxa Yoqutiston va Saxalin orolidagi sof gaz konlaridan qazib olinmoqda. Rossiyada tabiiy gazning asosiy qismi sharqiy rayonlar (G'arbiy Sibir)da qazib chiqarilmoqda.

Rossiyada Yagona gaz ta'minoti sistemasi ishlab turibdi. Uning tarkibiga gaz qazib olinadigan konlar, gaz quvur tarmoqlari va kompressor uskunalari er osti gazombori va boshqa inshootlar kiradi. Quvurlarkatta hajmdagi gazni etkazib beruvchi yagona usul hisoblanadi. Rossiyada ularning uzunligi 140 ming kmni tashkil etadi.

Tabiiy gaz asosan G'arbiy Sibir neft gaz provinsiyasidan, Volga bo'yi, Ural va Shimoliy Kavkazdagi asosiy magistral gaz quvurlar yordamida Rossiyaning Markaziy rayonlariga, Ukraina, Belorussiya, Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga etkazib beriladi.[13]

Ko'mir sanoati - yirik umumgeologik zahirasi ega (Dunyoda Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda turadi), biroq ko'mir konlari mamlakat bo'ylab notekis joylashgan, ularning katta qismi to'la o'zlashtirilmagan. Sibir va Uzoq Sharq rayonlarida joylashgan.

Mamlakatdagi asosiy ko'mir konlariga Kuznesk havzasi (Kuzbase), Kansk-Achinsk qo'ng'ir ko'mir havzasi, Pechora va Donesk havzasining bir qismi (Rostov viloyatida), shuningdek janubiy Yoqitiston havzasi kiradi. Rossiyaning Tunguska va Lena havzalari dunyodagi eng yirik ko'mir zahirasi ega bo'lgan havzalardir, biroq Sibirning ushbu rayonlarining tabiiy sharoitining noqulayligi tufayli ushbu havzalardan amalda foydalanilyapti.

Elektro – energetika - sanoatida elektro - energiyani ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya dunyoda faqat AQShdan keyingi o'rinda turadi. Mamlakatda 845 mlrd kvt/s elektr - energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Mamlakatda elektr - energiyaning 70 foizi issiqlik elektr stansiyalarda, 18 foizi gidravlik stansiyalarida va 12 foizi atom elektr stansiyalarida ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakatda energetika rivojlanishidagi muhim yo'nalishlardan biri gidro - energiya resurslardan foydalanilmoqda. Rossiyada Volga, Kama va Angara, Yeneseida GESlar kaskadi ishlab turibdi.

Qora metallurgiya - sanoati xomashyo bilan to'la ta'minlangan. Ayniqsa mamlakatda temir rudasi boy konlar ko'p. Temir rudasi Rossiyaning Kursk magnit anomoliyasi (KMA), Ural, Kareliya, Kola yarim oroli va Sibirdan qazib

olinmoqda. Qazib olinayotgan ko'mirning 80 foizi ochiq usulda qazib chiqariladigan. Temir rudasining 20 foizi chetga eksport qilinadi. 78,3 mln tonna temir rudasi qazib chiqarish salohiyatiga ega. Mamlakatda qora metallurgiya sanoati uchun kokslanuvchi ko'mirning asosiy zahiralari Kuznesk (Kuzbass) va Pechora havzalarida to'plangan.

Rossiya uzoq yillar jahonda cho'yan va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha etakchilik qilib keldi. Biroq bir necha yil ilgari mamlakat iqtisodiyotidagi ishlab chiqarishning keskin pasayishi tarmoqda qora metallar ishlab chiqarishga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. 39,8 mln tonna cho'yan va 51,6 mln tonna po'lat ishlab chiqarishda - Rossiya bu sohada dunyoda Xitoy, Yaponiya va AQShdan keyin to'rtinchi o'rinda turadi.

Rossiyada qora metallar ishlab chiqarish asosan 3 ta yirik Ural, Markaziy va Sibir metallurgiya bazalardagi korxonalarda to'plangan. Mamlakatdagi yirik metallurgiya markazlarga: Nijniy Tagil, Magnitogorsk, Chelyabinsk, Novotroitsk, Novokuznesk, Cherepovets, Stariy Oskol kabi markazlar kiradi.

Rangli metallurgiya – xilma - xil konstruksion materiallar ishlab chiqaradi. Tarmoq tarkibida mis, qo'rg'oshin - rux, nikel - kobalt, alyuminiy, titan-magniy, volfram-molibden sanoati shuningdek rangli metallar ishlab chiqarish sanoati kiradi.

Mis sanoati asosan Ural rayonida, Krasnouralsk, Kirovograd, Revda, Mednogorsk shaharlarida yirik korxonalariga ega. Qo'rg'oshin-rux ishlab chiqarish Kuzbass (Belovo), Shimoliy Kavkaz (Vladikavkaz), Ural (Chelyabinsk)da yo'lga qo'yilgan. Rossiyadan alyuminiy sanoatining Achinsk, Bratsk, Boksitogorsk, Volxov, Volgograd, Kamensk-Uralsk, Kandalaksha, Krosnayarsk, Novokuznesk, Shelexov va boshqa markazlari ishlab turibdi.

Mashinasozlik sanoati-Rossiyaning barcha regionlarida joylashgan. Og'ir mashinasozlik zavodlari metallurgiya ishlab chiqarishi uchun, qurilish industrial, tog'-kon, energetika, ximiya va boshqa ko'plab sanoat tarmoqlar uchun jihozal ishlab chiqariladi. Mazkur sanoat tarmoqlari asosan metallurgik markazlar yaqinida joylashgan.Ushbu tarmoqqa qarashli korxonalar Yekaterinburg, Nijniy

Tagil, Krasnoyarsk, Irkutsk, Novosibirsk, Orsk, Elektrostal (Moskva viloyati) shaharlarida ishlab turibdi.

Tog' – kon - asbob uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar Chelyabinsk, Prokopyevsk, Kiselevsk, Anjero- Sujenski, Kemerovo, Krasnoyarsk shaharlarida joylashgan. Neft va gaz sanoati uchun asbob-uskunalar asosan Volga-Ural rayoni, Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Sibirda ishlab chiqariladi.

Energetika - mashinasozligi korxonalarida bug' qozonlari, qudratli bug' turbinalari va generatorlari, gidroturbinalar, dizel va elektrdvigatellar tayyorlanadi. Korxonalar mamlakatning Biysk, Barnaul, Taganrog, Belgorod, Sankt-Peterburg, Novosibirsk shaharlarida ishlab turibdi. Shuningdek Rostov viloyatining Volgodonsk shahrida Atom Elektr Stansiyalar uchun asbob uskunalari ishlab chiqaruvchi zavod qurildi.

Stanoksozlik - sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning katta qismi mamlakatning Markaziy Shimoliy G'arbiy va Ural iqtisodiy rayonlariga to'g'ri keladi.

Mamlakat avtomobil sanoati engil va yuk mashinalari, avtobuslar, trolleybuslar ishlab chiqaradi. Ushbu tarmoqning yirik korxonalari Moskva, Nijniy - Novgorod (Gorkiy) va Yaroslavl shaharlarida qurilgan. Hozirgi vaqtda Nijniy - Novgorod, Ijevsk, Ulyanovsk, Moskva va Tolyattidagi zavodlarda engil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Nijniy - Novgorod viloyatining Pavlova shahrida va Moskva viloyatining Likino shahrida avtobuslar ishlab chiqaruvchi, Saratov viloyatining Engels shahrida esa trolleybuslar ishlab turibdi. Yuk avtomobillari esa Moskva, Naberejniy, Chelniy, Nijniy - Novgorod, va Ulyanovsk shaharlaridagi zavodlarda ishlab chiqarilmoqda.

Samalyotsozlikning - yirik sanoat markazlari Moskva, Qozon, Samara, Voronej, Saratov, Smolensk, Rostov-Don, Taganrog shaharlarida ishlab turibdi.

Qishloq - xo'jaligi mashinasozligi - tarmog'ida traktorlar chiqarish Chelyabinsk, Vladimir, Lipesk, Volgograd, Cheboksari, Rubsovsk, Novotroitski, Petrozavodek shaharlarida joylashgan korxonalarida ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatda yiliga 21 ming dona atrofida traktorlar ishlab

chiqarilmoqda. Rossiyaning deyarli barcha iqtisodiy rayonlarida kombaynlar va boshqa qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqariladi.

Aniq mashinalar - mexanizmlar va asboblari (elektronika, elektro - texnika, priborsozlik) ishlab chiqaruvchi korxonalar (texnologik jarayonlarda malakali mehnat talab etiladi) asosan mamlakatning markaziy rayonlaridagi yirik shaharlarda joylashgan. [6]

Kimyo sanoatida - mineral o'g'itlar (fosfat, kaliyva azot) ishlab chiqarishi muhim tarmoqlari hisoblanadi. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarishi bo'yicha Rossiya jahonning ko'pgina mamlakatlaridan oldinda turadi.

Superfosfat sanoatining yirik korxonalari Moskva viloyatining Voskresensk shahri, Leningrad viloyatining Sankt-Peterburg, Kingisepp shahrida azoto'g'itlari ishlab chiqaruvchi korxonalar Dzerjinsk (Nijniy - Novgorod atrofiga), Brezniki (Ural), Tula viloyatining Novomoskovsk, Stavropol o'lkasining Nevinnomisk, shuningdek Kemerovo shaharlarida joylashgan. So'nggi yillarda organik sintez kimyo sanoatining ahamiyati oshib bormoqda.

O'rmon sanoati - Rossiyada o'rmonlar maydoni 766 mln gektarni tashkil etadi. Biroq o'rmon resurslari mamlakat hududi bo'ylab notekis taqsimlangan. Foydalanilayotgan o'rmon maydonlari asosan Sibir, Uzoq Sharq, Ural mamlakat evropa qismining shimolida joylashgan. Barcha yog'och materiallariga bo'lgan iste'molning taxminan 75 foizi mamlakatning Yevropa qismiga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda Rossiyaning Yevropa qismida o'rmon resurslaridan intensiv holda foydalanilayotgan bo'lsada, tayyorlanayotgan yog'ochning 75 foizini aynan Ural, Sibir va Shimoliy rayon bermoqda. (Pravdinsk, Voljsk), Sibir rayonida (Krasnoyarsk, Bratsk, Ust-Ilimsk, Seleginsk, Baykal va Uzoq Sharq) rayonida joylashgan.

Yengil sanoati - so'nggi yillarda og'ir iqtisodiy jarayonlar yuz berdi. Tarmoqning mamlakat jami sanoat tarmoqlar tarkibidagi ulushi sezilarli qisqardi. (6 foizgacha).

Ayniqsa Rossiyaning Markaziy rayonlarida rivojlangan engil sanoatning to'qimachilik quyi sanoat tarmog'ida iqtisodiy krezis keskin tus oldi.

Faqat Markaziy iqtisodiy rayonda 1990 yillar boshlarida jami ip gazlamaning 70 foizigacha, (asosiy markazlari Ivanova, Moskva, Yaroslavl, Orexova-Zuyevo, Noginsk, Tver), zig'ir 80 foizgacha (Kostroma, Vyazniki), ipak 30 foiz atrofida (Moskva, Narofominsk va boshqa), jun gazlamasi 60 foizgacha (Moskva) ishlab chiqarildi.

Oziq- ovqat sanoati – Oziq - ovqat sanoati mamlakat iqtisodiyotida o'z o'rniga ega. Bu sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hozirgi vaqtda yuqori texnologiyalar bilan ta'minlangan holda olib borilmoqda. Tarmoqni rivojlantirish uchun katta mablag' ajratilgan. Masalan, oziq-ovqat va tamaki mahsulotlarini ishlab-chiqarish uchun 3,12 trln rubl miqdorda mablag' ajratilgan undan: (2012-yil)

- oziq-ovqat mahsulotini ishlab-chiqarishga - 2,952 trln rubl;
- tamaki mahsulotini ishlab-chiqarishga -164 mlrd rubl sarflangan.

Shundan kelib chiqqan holda quydagi mahsulotlar: 2,9 mln tonna go'sht, 2,5 mln tonna kalbasa mahsuloti, 3,7 baliq mahsuloti, 2,5 mln tonna o'simlik yog'i, 120 mln tonna choy, 413 mln dekalitr mineral suv ishlab-chiqarildi.

Oziq-ovqat va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga o'rtacha 16982 rubl oylik maosh belgilangan. (mart 2012).[11]

Oziq-ovqat sanoati ishlab-chiqarishning eng muhim tarmog'i hisoblanadi, chunki ishlab chiqarish insonlar uchun juda muhim bashariyat oziq-ovqatsiz mavjud bo'lmaydi.

Rossiyada bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotining tanqisligi mavjud emas, do'konlar va supermarketlarda oziq-ovqat mahsulotlariga boy, har-bir odam bugungi kunda mahsulotni mazasi va sifatiga qarab tanlash imkoniyatiga ega, 80 - 90 – yillar oralig'ida oziq-ovqat tanlash kuchli muammo edi. Do'konlarning peshtaxtalari bo'shab qolgan, g'ost, kalbasa, yog` va oziq-ovqat mahsulotlarni harid qilish uchun odamlar katta navbatda turishgan.

Rossiya oziq-ovqat sanoatining imkoniyatlar juda ham yuqori. Bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab-chiqarish va homashyo bazasining ko'pligi bilan bog'liq. Rossiyada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab-chiqarishning yuqori sifatlilikligi nafaqat Rossiyada boshqa chet mamlakatlarda ham o'z o'rnini topdi.

Shuni ta'kidlash joizki Rossiya davlatining oziq-ovqat sanoati barcha sanoatlar ichida etakchi o'ringa chiqdi. Buning sababi chet-ellik hamkasiblarining tajribasini o'rganib oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab-chiqarishda qo'llagan. Muhimi ular ishlab-chiqarishda yangi texnika va texnologiyalardan foydalanayotganligi, Rossiya oziq-ovqat havsizligining standartlari va barcha me'yorlarini saqlanishini qattiq nazoratiga olganligi. Bugungi kunda Rossiyada minglab oziq-ovqat sanoat korxonalari tashkil etadi.

Oziq-ovqat etarli darjada ko'paydi, buning sababi shundaki bunday mahsulotlarni uzoq muddat saqlab bo'lmaydi. Bu esa ishlab chiqaruvchilardan yangi texnologiyalardan foydalanishni va oziq-ovqat mahsulotini saqlash uchun zamonaviy uskunalrni izlashga majbur etadi, ko'plab ishlab-chiqaruvchi tashkilotlar o'z mahsulotini o'tkazish uchun raqobatga uchrayapti shu sababli oziq-ovqat ishlab-chiqarishda jadal rivojlanmoqda, yangi texnologiyalarni ishlab-chiqarishga tadbiiq qilinyapti.

Do'konlardagi oziq - ovqat mahsuloti turlarining aksariyati Rossiyada ishlab-chiqarilganligi - bu davlatning oziq-ovqat sanoatining rivojlanib o'sayotganligi, sanoatni qishloq-xo'jaligi bilan juda yaqin bog'liqligini ko'rsatadi, chunki oziq – ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda, asosiy xomashyo ba'zasi qishloq - xo'jaligi hisoblanadi. Bu yana savdo – sotiq sohasiga bog'liqdir.

Oziq – ovqat sanoati turli hil tarmoqlardan iborat. Sohaning eng yiriklari quyidagilar:

- go'sht, go'sht va sut, baliqchilik, un va don mahsulotlari;

Hozirgi kunda oziq – ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning asosiy qismi qayta ishlovchi korxonalar hisoblanadi. Zamonaviy oziq – ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi oziq – ovqat mahsulotlarini xomashyosini qayta ishlashni turli hil usullardan foydalanilyapti. Bu

mahsulotning ta'msifatini oshirish, iste'molchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida amalga oshirmoqda.

- bu usullar mahsulotga termik ishlov berish, konservalash, tuzlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Mahsulotga texnologik ishlov berishni o'zgartirish uning sifatini yanada oshiradi.

- haqiqat shundan iboratki, hozirgi oziq – ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarining ahvoli unchalik yaxshi emas. Buning sababi shundaki, aksariyat korxonalarini texnik qayta ta'mirlash uchun mablag'ning yo'qligi aholining mahsulot sotib olish darajasi pastligi, investitsiyaning yo'qligi, davlatda xomashyo ba'zasining qoniqarsiz holati va import tovarlarining yuqori narxdaligidir. [11]

Oziq – ovqat sanoati geografiyasi

1) Qishloq - xojaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hududlarda qayta ishlanmagan xomashyolarni etishtiruvchilar:

a) Baliqchilik sanoati – yirik dengiz bandargohlar (portlari), Shimoliy muz, Atlantika va Tinch okeani;

b) Don mahsulotlari – Janubiy-Markaziy qora tuproqli erlar va Volga bo'yi hududlari, Ural va G'arbiy Sibir;

d) Yog' mahsulotlari – sut mahsulotlarini ortig'i bilan etkazib beruvchi tumanlar;

e) Yog' ishlab chiqaruvchi – Shimoliy Kavkaz, Qora tuproqli erlar, Oltoy o'lkasi;

f) Choy – Shimoliy Kavkaz.

2) Tayyor mahsulotlarni iste'mol qiluvchi tumanlarga qayta ishlovdan o'tgan xomashyodan foydalanuvchi sohalari makaron, qandolat mahsulotlari, non mahsulotlari va boshqalar.

**Rossiya Federatsiyasining sanoatdagi o'sish su'ati (2011 – yil yanvar
oyidan 2012 – yil yanvar oyigacha.**

8 - jadval

№	Tarmoqlar	O'sish ko'rsatkichi
1	Sanoat o'sishi, jami	1,4
2	Foydali qazilmalar qazib olish	1,9
3	Neft qazib olish	0,8
4	Gaz qazib olish	3,7
5	Oziq – ovqat sanoati	4,3
6	To'qmachilik sanoati	-6,7
7	Kiyim ishlab chiqarish	3,2
8	Qog'oz ishlab chiqarish	-0,1
9	Poligrafiya mahsulotlari	-0,1
10	Kimyo	-2,9
11	Metallurgiya	0
12	Mashinasozlik	0,4
13	Elektr–energetika	-2,2

Xomashyo ba'zasining rivoji go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlarining alohida turli va shakar mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'sishiga olib keldi.

2011 - yilda Rossiya Federatsiyasida 1994 - yildan keyin qandlavlagini hosilini yig'ish rekord darajaga etdi va Rossiya 4,8 mln tonna shakar ishlab chiqardi. Bu butun Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishlab chiqarganidan ko'p.

Biroq, shakar ishlab chiqarish natijasi bundan ham yuqori bo'lishi mumkin edi. Xomashyo ba'zasining muvozanatsizligi ishlab chiqarish quvvatini hamda qandlavlagini o'z vaqtida qayta ishlashni belgilangan muddatdan kechiktirdi. Bizning hisobimiz bo'yicha 7 mlrd.rubldan ko'proq mablag' iqtisodiy foyda imkoniyatiga erisholmadi. Shu bilan birga Markaziy Qora er hududidagi qandlavlagi etishtiruvchi shu kabi muammoga duch kelgan xo'jalik qand lavlagi

ekish maydonlarini kamaytirishi mumkin, bu esa 2012 – yilda umumiy shakar etishtirish natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2011 – yilga taqqoslaganda go'sht ishlab chiqarish miqdori 7,3 % ga o'sgan (4181 ming tonna), go'sht mahsulotlari 14,1% ga o'sgan (1860 ming tonna), kolbasa mahsulotlari 3,7 % ga (2473 ming tonna), quruq sut mahsulotlari 19,1 % ga (76 ming tonna), sariyog' 4,5 %ga (216,3 ming tonna), shakar 49,6 % ga (7113 ming tonna), qandolat mahsulotlari 2,1 % ga (2944 ming tonnaga) o'sgan.

- sut mahsulotlarini ishlab chiqarish 2,7 %ga (10578 ming tonna), pishloq mahsulotlari 7 va 2,8 % ga (425,4 ming tonna), o'simlik yog'i 3% (2993 ming tonna), non mahsuloti 2 % ga (6977 ming tonna), don mahsuloti 8 % (1133 ming tonna), sabzavot konservalari 2% ga (10258 rubl), mineral suv 2,1 % ga (9101 mln litr), alkogolsiz ichimliklar 4,6 % ga (590,7 mln dal) ga kamaygan.

Sut mahsulotlarini ishlab chiqarishning kamayishi sabablaridan biri – bozorda narx - navoning o'sib borishi iste'molga bo'lgan talabni kamaytirdi. 2011 – yilga nisbatan sut mahsulotlarini iste'mol narxi 7 % ga kamaygan.

2012 – yilda yarim qattiq pishloq mahsuloti ma'lum miqdorda 7,4 % ga (92.6 ming tonnaga) o'sgan. Qattiq pishloq ishlab chiqarish mahsulotlari biroz kamaygan 0,5 % ga. 2011 – yilda 10,7 mln tonna oxirgi bir necha yilda eritilgan pishloq mahsulotlari miqdori kamaydi 14,6 % ga, 2011 – yilga nisbatan (123,2 mln tonna), bu arzon eritilgan pishloq xomashyo mahsulotlariga talab ko'payganidan va ishlab chiqarish 8 % ga (52,1 ming tonna) ga ko'payganidan darak beradi.

2011 – yilga nisbatan 2012 – yilda o'simlik yog'ini ishlab chiqarish kamaygan bo'lsada 2011 – yilning oktabr, dekabr oylarida yog' zavodlari o'simliik yog'ini ishlab chiqarishni ko'paytirgann va 137,3 % ni tashkil etgan.[13]

2012- yilda oziq – ovqat resurslari balansi tahlili.

9 - jadval

Mahsulot	2012 yilmlrd. AQSHdoll.		
	Eksport	Import	Eksport va import tafovudi
Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari	11,96	42,48	-30,51
Oziq – ovqat mahsulotlari	5,59	32,69	-27,10
Go'sht mahsulotlari	0,03	6,44	-6,41
Sut mahsulotlari	0,12	3,42	-3,30
O'simlik moyi	0,81	1,17	-0,36
Shakar	0,06	1,19	-1,13
Un mahsulotlari	0,31	0,02	0,29
Non va shirinliklar	0,63	1,41	-0,78
Sabzavotchilik va mevachilik	0,08	1,49	-1,41
Boshqalar	0,30	1,11	-0,81

Oziq – ovqat resurslari balansi tahlili shuni ko'rsatdiki, go'sht va sut mahsulotlari importi asosiy ko'rsatgichni qayd etgan.

Ushbu holatni o'zgartirish sut va go'sht mahsulotlarini rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy va federal qabul qilingan dasturga bog'liq.

Jahonda va Rossiyada bo'layotgan hodisa va voqealar agroprom tashkilotlari ishlari uchun iqtisodiy bo'shliq yaratmoqda. Bu holatda milliy ishlab chiqaruvchilar kutilmagan xavfdan qutulish uchun sharoitga moslashish talab etiladi.

2012 – yil 1 – yanvardan boshlab Rossiya, Belorussiya va Qozog'istonni birlashtiruvchi yagona iqtisodiy zona faoliyat yurita boshladi. Bu esa Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi o'rniga bojxona ittifoqi komissiyasi kelishini ta'minladi.

Yagona iqtisodiy zona va yangi tuzilgan bojxona ittifoqi integratsiya holatini belgilash va boshqarish uchun yagona iqtisodiy komissiya faoliyatini boshladi. Bundan tashqari tovarlarning erkin harakati, xizmat, kapital va ishchi kuchlariga shart – sharoit yaratish uchun yagona iqtisodiy zona xalqaro shartnomasining 17 ta hujjati 2012 – yil 1 – yanvardan boshlab kuchga kirdi.

Ekspertlar xulosasiga ko'ra yagona iqtisodiy zona faoliyati boshlanishi 3 ta davlatning ham iqtisodiy o'sishiga va aholining turmush tarzini yaxshilashga asos bo'ladi. Iqtisodchilarning bashorati bo'yicha yagona iqtisodiy zonada oxirgi 5 yil ichida YaIM quyidagicha: [11]

Rossiya 16,8 % ga , Belorusiya 16,1 % ga, Qozog'iston 14,7 % ga o'sgan.

Bozor islohatini o'tkazish tashqi iqtisodiy faoliyatini liberallashtirish Rossiyaning ishlab chiqaruvchi korxonalariga iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilgan yangi texnologiyalarni jalb qilish, Rossiyaning xorijiy mamlakatlardagi oziq – ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini bilan raqobatlashish imkoniyatini berdi. Iqtisodiy va moliyaviy holatlar ba'zi tashkilotlarda amalga oshirish imkoniyatini bermadi va Rossiyani butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bolishi oziq – ovqat ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy sohalarni moderinizatsiya ishini ko'paytirish vazifasini qo'ydi.

Qishloq xo'jaligi: Qishloq - xo'jaligiga yaroqli erlar 197,6 mln. Gektar, shundan 85,4 mln. gektari haydaladigan er, qolgan qismi pichanzor va yaylov. Haydaladigan erlarning 4/5 qismi Markaziy, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, Ural va G'arbiy Sibir iqtisodiy rayonlariga to'g'ri keladi. Qishloq - xo'jaligi yalpi mahsulotining 47,2% ni dehqonchilik va 52,8% ni chorvachilik beradi. Asosiy ekinlari: g'alla, qandlavlagi, kungaboqar, kartoshka, sabzavot, zig'ir va boshqa Volgabuyi, Shimoliy Kavkaz, G'arbiy Sibir, Ural va Markaziy rayonlarda bug'doy, Shimoliy, Shimoli - G'arbiy va Markaziy rayonlarda zig'ir, Shimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, Markaziy rayonlarda kungaboqar, Markaziy va Shimoliy Kavkazda qandlavlagi etishtiriladi. Turli rayonlarda meva, rezavor va uzumzorlar bor. Rossiya 4,29 mln. gektar er sug'oriladi (asosan, Shimoliy Kavkaz va Volgabo'yida). [13]

Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy va tabiiy sharoiti chorvachilikning barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay. Volgabo'yi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Kavkaz, Ural, Markaziy iqtisodiy rayonlarda qoramol ko'proq boqiladi. Yirik shaharlar atrofida sut chorvachiligi va cho'chqachilik, Chekka Shimolida bug'uchilik va hayvonotchilik rivojlangan. Ko'pgina joylarda parrandachilik, asalarichilikka katta ahamiyat beriladi. XX asrning 90 - yillaridan qishloq - xo'jaligida ham islohatlar o'tkazila boshladi, erga egalik qilishning yangi shakllarini joriy etishga kirishildi.

Rossiya xalq xo'jaligi juda ko'p sonli tarmoq va korxonalarini o'z ichiga oladi. O'tgan yillar davomida mamlakatda iqtisodiy islohatlar o'tkaziladi. Milliy Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

Rossiya juda katta er fondiga ega. Mamlakat er fondi 1707,5 mln gektarni tashkil etadi. Lekin er fondi tarkibida qishloq - xo'jaligida foydalaniladigan erlar bor yo'g'i 209,0 mln gektarni tashkil etadi. (Qishloq - xo'jaligida foydalaniladigan erlar maydoniga ko'ra dunyoda Xitoy va AQShdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi).

Mamlakatda haydaladigan erlar maydoni aholi jon boshiga 0,87 gektarga to'g'ri keladi. (Bu ko'rsatgich Qozog'istonda 2,0 gektar, Kanadada - 1,7 gektar, AQShda - 0,54 gektar, Yaponiyada - 0,03 gektarni tashkil etadi).

Hozirgi vaqtda mamlakat qishloq - xo'jaligi ishlab chiqarishda tarkibiy qayta qurish jarayoni kechirilmoqda. Agrar islohatlar doirasida kolxoz va sovxozlarni qayta tashkil etish, erlarni qaytadan taqsimlash, ularni xususiylashtirish ishlari davom etmoqda.

Mamlakat qishloq - xo'jaligi 2 ta asosiy dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlaridan iborat.

Rossiya hududida tabiiy sharoit tabiat zonalarini bo'yicha o'zgarib boradi. Shuning uchun ham ekiladigan maydoniy o'simliklar va boqiladigan hayvon turlari zonalar bo'yicha farq qiladi. (qishloq - xo'jaligining mintaqalar bo'yicha ixtisoslashuvi).

Shunday qilib Tundra va o'rmon-tundra zonasining asosiy ixtisoslashgan sohalari bug'uchilik, ovchilik va baliqchilik hisoblanadi. Bu zonada dehqonchilik uchun sharoit noqulay.

Tayga zonasidagi daryo vodiysi bo'ylarida dehqonchilikning rivojlangan markazlari katta maydonlarni egallaydi. Bu erlarda asosan chorvachilik sohalari ham rivojlantirilgan.

Tayganing janubiy qismi va aralash o'rmonlar zonasi (Rossiyaning Yevropa qismi noqoratuproq zonasi)da zig'ir, donli ekinlar (javdar, so'li, arpa), sabzavot, kartoshka va hashaki ekinlar ekiladi. Ushbu zonada sut va go'sht-sut yo'nalishiga ixtisoslashgan chorvachilik sohasi etakchilik qiladi. Ko'p sonli sanoat markazlari atrofida cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan. G'arbiy Sibir taygasining janubiy qismida ekin maydonlari katta maydonlarni tashkil etadi.

O'rmondasht zonasi, Rossiya Yevropa qismi qora tuproq zonasi shimolida ziroatchilik etakchi soha hisoblanadi. Bu erda donli va texnika ekinlari (bug'doy, javdar, so'li, qand lavlagi, kungaboqar, makkajo'xori, kartoshka, ildizmevali em-hashak ekinlar) etishtiriladi. Don va kartoshka ekinlarini qayta ishlash hisobiga ko'pgina ozuqa - em olinadi. Bu esa yirik qoramolchilik, cho'chqachilik va

parrandachilikni rivojlantirish uchun ozuqa ba'zasi bo'lib xizmat qiladi. Bu erda bog'dorchilik muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi Yevropa qismi dasht (Volgabo'yi, Ural) rayonlarida bug'doy va makkajo'xori etishtiriladi. Makkajo'xori qoramollar va parrandachilik uchun muhim ozuqa hisoblanadi. G'arbiy Sibir dashtlarida bahorgi bug'doy etishtiriladi.

Tabiiy yaylovlarda esa yirik qoramollar, quriq iqlimli rayonlarda qo'ylar ko'paytirilmoqda. Uzoq Sharqning dasht rayonlarida (Volgabo'yi) don va soya dehqonchiligi va sut-go'sht chorvachiligi rivojlangan.

Uzoq Sharqning Primorye o'lkasida musson iqlimi alohida tabiat zonasini hosil qiladi. (Uzoq Sharqda sholi etishtiriladi).

Rossiyaning janubiy chalacho'l va cho'llar zonasida (Volgabo'yi, Qollshqiya, Dog'iston) go'sht-jun qo'ychiligi rivojlangan.

Rossiya Federatsiyasining tog'li rayonlarida (Kavkaz, Oltoy, Sayan) tog' yaylov chorvachiligi rivojlangan. [13]

Mamlakatning yirik shaharlari atrofida shahar atrofi xo'jaligi rivojlantirilgan.

Transporti. Rossiya Federatsiyasida zamonaviy transportning hamma turlari rivojlangan. Transport yo'lining uzunligi – 879 100 km (87 180 km magistral temir yo'llar), qattiq qoplamali avtomobil yo'llari uzunligi – 652 500 km, kema qatnaydigan ichki suv yo'llari uzunligi - 84,6 ming km (Belomor—Boltiq, kanali, Moskva nomli kanal, Volga - Don kanali, Volga-Boltiq suv yo'li va boshqalar.), magistral neft va gaz quvurlari uzuligi -213 ming km. Temir yo'larning eng serqatnov va ko'p yuk tashiladigan magistrallari elektrlashtirilgan. Mamlakat yuk aylanmasining 70% i temir yo'l transportiga to'g'ri keladi. Ichki yuklarning bir qismi avtomobil va daryo transportida, tashqi savdo yuklarining aksariyati dengiz transportida tashiladi. Dengiz savdo flotining hajmi - 8,3 mln. tonna Dedveyt eng yirik dengiz portlari: Sankt - Peterburg , Vanino, Kaliningrad, Murmansk, Novorossiysk, Arxangelsk, Vladivostok. Yirik avtomobil yo'llari kesishgan shaharlar: Moskva, Sankt-Peterburg , Novosibirsk, Xabarovsk, Adler.



Mamlakatda havo transportining ahamiyati katta. Barcha iqtisodiy rayonlar, yirik shaharlar o'rtasida, yaqin va olis xorij mamlakatlari bilan aviatsiya qatnovi yo'lga qo'yilgan. Moskva, Sankt - Peterburg , Novosibirsk, Yekaterinburg , Irkutsk, Vladivostokda yirik xalqaro aeroportlar bor.

Rossiyada Moskva, Sankt-Peterburg , Novosibirsk, Nijniy - Novgorod, Samara, Yekaterinburg shaharlarida metropoliten qurilgan. [14]

Temir yo'l transporti - Rossiyadagi asosiy transport turlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat temir yo'llarining uzunligi bo'yicha faqat AQShdan keying o'rinda turadi. Rossiyada temir yo'l lineyalarining umumiy uzunligi 90 ming km atrofida, shundan $\frac{1}{3}$ qismi elektrlashtirilgan. Rossiya Yevropa qismi asosiy temir yo'l magistralari Moskva shahri atrofida temir yo'llar radius bo'ylab joylashuvi xosdir. Rossiya mazkur mamlakatning yirik transport tugunidan turli tomonlarga

yo'nalgan magistral yo'llar ya'ni poytaxtni barcha iqtisodiy rayonlar va dunyoning boshqa davlatlari bilan bog'laydi.

Tran - Sibir magistrali orqali Rossiya, Xitoy, Mongoliya, KXDR mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni olib boradi.

Endilikda Rossiya Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan Ukraina va Belorussiya davlatlari orqali temir yo'llari bilan bog'langan.

Rossiya uchun dengiz transportining ahamiyati katta bo'lib, uning qirg'oqlarida joylashgan dengiz akvotoriyalari uch dengizga Atlantika, Shimoliy muz okeani va Tinch okeanga qarashli. Rossiya dengiz chegaralarining uzunligi 40 ming km atrofida. Sobiq SSSR parchalangandan so'ng mamlakatning okeanga chiqish imkoniyati yomonlashdi, jumladan Qora, Azov, Boltiq va Kaspiy dengizlaridagi muhim portlaridan foydalanish imkoniyatlari o'zgardi.

Rossiya zich daryo turiga ega. Ko'pgina daryolarda kemalar qatnaydi. Rossiyada ichki suv transporti yo'llari 80 ming kmni tashkil etadi.

Avtomobil transporti. Mamlakatda avtomobil yo'llari 879 100 km (652 500 km asfaltlangan), transportining ahamiyati yuqori bo'lib, unda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida foydalaniladi. Ushbu transport turining yo'lovchi tashishdagi salmog'i ham yuqori. Biroq avtomobil yo'llari qurilish sanoati jahon standartiga deyarli to'la javob bermaydi.

Havo transporti. Hozirgi vaqtda Rossiya, havo yo'llari orqali dunyoning istalgan shahar yoki davlatlari bilan bog'langan. Mamlakatning poytaxti Moskva shahri xalqaro talablarga javob beruvchi Vnukova, Sheremetevo, Bikova, Domodedova kabi yirik aeroportlar ishlab turibdi. Havo transporti mamlakatning Shimol, Sibir va Uzoq Sharq rayonlaridagi borishi qiyin bo'lgan hududlarni xo'jalik maqsadlarda foydalanishda muhim rol o'ynaydi.

Temir yo'l transporti. Temir yo'llarining umumiy uzunligi – 87 180 km. Transporti mashinasozlikning yirik zavodlari Nijniy - Novgorod, Bryansk, Sankt-Peterburg, Ulan-Ude, Nijniy - Tagil, Kolomne - Kaluga, Lyudinova, Murome,

Noverkassk shaharlarida joylashgan. Temir yo'l vagonlari Bryansk, Mitishi, Nijniy - Tagil, Tver shuningdek Abakan, Altaysk, Ust-Kata va Sankt – Peterburg shaharlarida joylashgan zavodlarda ishlab chiqariladi.[15]

Suv transporti.Rossiyada 120 ta (uzunligi 10 km dan ziyod bo'lgan) daryolar mavjud (bazilari yil bo'yi kema qatnovi uchun yaroqli). Mamlakatning yirik portlari – Arxangelsk, Vladivostok, Kaliningrad, Murmansk, Novorossiysk, Magadan, Sankt – Peterburg, Tuapsk, ichki portlari – Astraxan, Volgograd, Qozon, Krasnoyarsk, Moskva, Nijniy – Novgorod, Rostov, Samara, Xabarovsk. Dengiz va daryo kemasozligi va kemalarni ta'mirlash Sankt-Peterburg, Astraxan, Nijniy - Novgorod, Tyumen, Krasnoyarsk, Xabarovsk, Blagoveshensk, Komsomolsk-Amur, Arxangelsk, Murmansk, Yaroslavl, Ribinsk, Zelenodolsk shaharlarida rivojlantirilgan.

2013 - yil Rossiyaning tashqi iqtisodiy aloqasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni bunga sabab Yevropa ittifoqidagi inqiroz hamda Yaqin Sharq mamlakatalraidagi nizolardir. [1-2]

Agar buni biz statistik ma'lumotlarda ko'rib chiqadigan bo'lsak quydagicha, o'tgan yilga nisbatan kamayganligini ko'ramiz. 2013 - yil tashqi savdo aylanma 844,2 mlrd. dollar, eksport-532.6 mlrd. dollar, import 317.8 mlrd. dollarni tashkil etdi. O'sish surati + 0,3%.

Bunga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin:

1. 2008 yil inqirozning yuz berishi natijasida mamlakatlar iqtisodiyoti sekin rivojlanishi. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida 2012-2013 yillarda ishlab chiqarish sur'atining sekinlashishi olib keldi.
2. Eksport qiladigan mahsulotlar kamayishi, buning asosiy sababi rubl kursining pasayishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati pastdir. [1]

2.2. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari.

Rossiya Federatsiyasi so'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlari bilan faol tashqi iqtisodiy aloqalarni olib bormoqda. 1994 - yilda Rossiya Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Hozirgi

vaqtda Rossiya dunyoning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Germaniya, Ukraina, Belarusiya, Italiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib bormoqda. Bundan tashqari Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalarida Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari ham muhim o'rin tutadi. Quydagi jadvalda (2 – jadval) MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasihaqida ma’limot berilgan. Unga ko’ra Qirg’iziston (+16.9%), Armaniston (+9.9%) mamlakatlari bilan 2012 - yilga nisbatan tashqi svdo aylanmasi o’sganini ko’rsak, Belarusiya (-14.5%), Ukraina(-12.3%) mamlkatlarida aksincha kamayganini ko’rishimiz mumkin.

MDH ga a’zo mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalariga oid statistik ma’limotlar berilgan. Unda Rossiyaning Qozog’iston bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanayotganligi ko’rsatilgan. 2- chizmada [11]


MDH ga a’zo mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar

10 - jadval

№	Mamlakat	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	2012 -yilga nisbatan (%)
1	Armaniston	1341,8	989,5	352,5	+9,9
2	Belorusiya	33582,6	20027,7	13555,0	-14,5
3	Qozog’iston	26470,8	17460,1	9010,7	+2,8
4	Qirg’iziston	2139,6	2029,5	110,1	+16,9
5	Mongoliya	1738,4	1320,9	417,5	-16,7
6	Tojikiston	762,3	724,4	37,9	+2
7	O’zbekiston	1569,4	1430,0	139,4	+9,4
8	Ukraina	4062,2	2804,0	1258,7	-12,3
9	Ozərbayjon				

Rossiyaning MDH ga a'zo mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari.

№ 3 - chizma



Rossiya Federatsiyasi dunyoda qudratli eksport va import imkoniyatlariga ega bo'lgan davlatlardan biri. U chetga mashina va uskunalari, transport vositalari, metall, qimmatbaho toshlar, neft, tabiiy gaz, ko'mir, kimyoviy moddalar, yog'och, kauchuk, xom teri, to'qimachilik mahsulotlari va boshqalar. eksport qiladi. Chetdan elektronika, ro'zg'or texnikasi, xalq iste'mol mollari, qishloq - xo'jaligi mahsulotlari va xomashyosi sotib oladi. MDH, Boltiq bo'yi mamlakatlari, Italiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Niderlandiya, Turkiya, Xitoy va boshqa davlatlar bilan savdo qiladi.

Tashqi savdoning tovar tarkibi ham birmuncha o'zgardi. Rossiya eksportida mineral mahsulotlar (neft, gaz, ko'mir va h.k.) etakchi o'rinni egallaydi. 2012-yilda Rossiya tashqi bozorga 130 mln.t neft, 200 mlrd.m³ tabiiy gaz, 30 mln. tonna ko'mir, 17 mln. tonna temirrudasi va boshqalarni etkazib berdi. Mashina va


jihozlarning eksportdagi hissasi 2,9% gacha qisqardi, yoqilg'i-energetika resurslarining ulushi 44% ni tashkil qilgan.

Germaniya, Italiya, Fransiya, Avstriya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Ruminiya va boshqa Yevropa davlatlari Rossiya nefti va tabiiy gazining asosiy iste'molchilaridir.

Rossiyaning MDH va horijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari haqida ma'limot berilgan. Unda 2012 yilga nisbatan MDH mamlakatlari bilan eksporti 7.2% ga, importi 8% ga kamayganligi, horijiy mamlakatlar bilan esa eksporti 1.7%ga, importi 1.5% ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. [10]

Rossiya Federatsiyasining 2013 yil eksport va import ko'rsatkichlari

4 – chizma



O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik

O‘zbekiston va Rossiyani ko‘p yillik tarixiy rishtalar bog‘lab turadiki, mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng ular yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi hamda ravnaq topdi. Ma‘lumki, 1992 yil 20 mart kuni ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan edi. O‘tgan yillar mobaynida strategik sheriklik va ittifoqchilik tamoyillariga asoslangan O‘zbekiston-Rossiya do‘stona hamkorligining shakllanishi hamda rivojlanishi katta yo‘lni bosib o‘tdi.

Bir-birining barqaror taraqqiyoti va gullab yashnashidan, shuningdek, mintaqadagi va xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborining yuksalishi hamda mustahkamlanishidan har ikki mamlakat birdek va xolisona manfaatdordir.

Xalqaro tashkilotlarda an‘anaviy hamda izchil ravishda bir-birining manfaatlarini yaqin va o‘zaro manfaatli hamkorlikning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Har ikki mamlakat BMT, MDH va boshqa tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlikni kengaytirish hamda chuqurlashtirishning tarafdoridir.

„O‘zbekiston biz uchun mintaqadagi eng ustivor sheriklaridan biri va bizning munosabatlarimiz alohidadir” — deya bayonot bergan edi Rossiya Prezidenti Vladimir Putin o‘zining 2012 - yil 4 - iyun kuni Toshkentga tashrif chog‘ida.

Biz mamlakatning qanday imkoniyatlarga ega ekanligini juda yaxshi bilamiz va munosabatlarimizni uning salohiyatiga hamda xalqlarimiz o‘rtasidagi chuqur tarixiy aloqalarga muvofiq ravishda ko‘ramiz.[2]

„O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ittifoqchilik munosabatlari tamoyillariga muvofiq rivojlanmoqda” — deya qayd etgan edi Prezident Islom Karimov. Rossiya Federatsiyasining rahbari bilan uchrashuv chog‘ida.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida hal qilib bo‘lmaydigan muammolar yoki bartaraf etib bo‘lmaydigan to‘siqlar yo‘q, mintaqaviy hamda xalqaro darajada ko‘p tomonlama hamkorlikning samarali mexanizmlari ishga solingan va ular hayotga izchil tatbiq etilayotir.

Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya doirasida faol ish olib borilyapti. Ayni paytda "Lukoil" kompaniyasi O'zbekistonda uchta istiqbolli loyihani amalga oshirmoqda. Hususan, Mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim doirasida Xovzak, Shodi, Qo'ng'iro't uchastkalari hamda Qandim konlar guruhida geologiya - qidiruv ishlari o'tkazildi va natijada 18,5 milliard³ metr gaz qazib olindi. Hisor hududi konlarida olib borilgan ishlar natijasida 368,5 ming tonna neft va 2 milliard³ metr tabiiy gaz qazib olindi. "Lukoil" Investorlar konsorsiumi tarkibida Orol bloki hududida geologiya-qidiruv ishlarini olib bormoqda. Bu ishlar samaradorligi qimmatbaho xomashyo qazib olish hajmining o'sib borayotganli nomoyon bo'lmoqda.

Kompaniyaning yaqin 5 yildagi investitsiya dasturi qariyb 5 milliard dollarni tashkil etadi.

2013 - yilda ham kapital mablag'larni kiritish hajmi yanada ortdi, hususan, "Lukoil" kompaniyasi O'zbekistonda ikkita loyihani ro'yobga chiqarish uchun mahsulot taqsimoti bitimi asosida qiymati 678,5 million AQSh dollariga teng miqdorda sarmoya kiritishni rejalashtirdi. Kompaniyaning O'zbekiston neft-gaz kompleksiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari 3 milliard 200 million AQSh dollarni, joriy yilning to'qqiz oyi yakunlari bo'yicha esa qariyb 500 million dollarni tashkil etdi.

Hozirgi paytda ikki tomonlama munosabatlarning o'suvchanlik holati oliy va yuqori darajadagi muntazam uchrashuvlar bilan izohlanadi. Hukumatlararo hamda idoralararo aloqalar, ishbilarmon doiralar vakillarining anjumanlari an'ana tusini oldi, mintaqalararo, hamkorlik faollashmoqda, ijtimoiy – siyosiy, ilmiy va madaniy yo'nalish o'zaro munosabatlar ham tobora rivojlanmoqda. Tomonlar uzoq muddatli manfaatlarga hamkorlikni rivojlantirishga doimo tayyordirlar.

Ikki mamlakat rahbarlari tomonidan 1992 - yil 30 may kuni imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Shartnoma, 2004 - yil 16 iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Strategik sherikchilik to'g'risida Shartnoma, 2005 - yil 14 noyabrda

imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida Shartnoma mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Davlatlarimiz an'anaviy ravishda mintaqada tinchlik hamda barqarorlikni saqlash va mustahkamlash, xalqaro terrorizm, ekstremizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlari, shuningdek, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi va narkotrafikka qarshi kurashda say-harakatlarni birlashtirishning tarafdorlari bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar muvaffaqiyatli rivoj topayotir. Bugungi kunga qadar Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston Respublikasining eng yirik tashqi savdo sherigi sifatidagi mavqeini barqaror saqlab kelmoqda. Shu o'rinda 2012 - yil yakunlariga ko'ra, mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 7,6 milliard AQSh dollarini tashkil qilganini ham qayd etish joizdir.

Sarmoyaviy sohadagi o'zaro hamkorlik RossiyavaO'zbekiston munosabatlarida muhim o'rinni egallaydi. Yoqilg'i - energetika majmuida keng ko'lamli qo'shma loyihalarni hayotga tatbiq etish, birgalikda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, O'zbekiston hududidagi uglevodorod xomashyosi konlarini o'zlashtirish va uni manziliga etkazish bilan bog'liq ishlar ana shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda Respublikamizda Rossiya kapitali ishtirokida tashkil etilgan 866 ta korxonalar faoliyat yuritayapti. Ularning 721 tasi qo'shma korxonalar, 145 tasi esa yuz foiz tashqi kapital asosida tuzilgan korxonadir. Bundan tashqari, Rossiyaning 102 ta firma va kompaniyasining vakolatxonalarini mamlakatimizda akkreditatsiyadan o'tgan. O'z navbatida, Rossiya Federatsiyasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirokida 489 ta firma barpo etilgan. "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasining Rossiya kompaniyalari bilan hamkorligi "Chevrolet" hamda "Daewoo" brendi ostidagi mamlakatimiz mahsulotlarini eksport qilish orqali amalga oshirilayapti.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasida Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyasining faoliyati ikki tomonlama amaliy aloqalar taraqqiyotida muhim

o‘rin tutadi. Xususan, mazkur komissiyaning 2012 - yil 13 dekabr kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan 14-majlisi yakunlari tomonlarining iqtisodiy aloqalarni har tomonlama rivojlantirishga, savdo iqtisodiyoti, yoqilg‘I-energetika, transport-kommunikatsiya, ilmiy-texnika sohalaridagi istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab olishga bo‘lgan o‘zaro manfaatdorligini yana bir karra tasdiqladi.

Gumanitar va madaniy aloqalar rivoji ikki tomonlama munosabatlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

So‘ngi yillarda ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan va texnika sohalaridagi o‘zaro manfaatli aloqalar ham muvaffaqiyatli rivoj topmoqda. Yurtimizda G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyoti akademiyasi M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filiallari ochilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgan va ular bugungi kunda iqtisodiy hayotimizning har jabhasida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston va Rossiya xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlab ikki xalqning tobora o‘sib borayotgan farovon turmush darajasini yuqori bosqichlarga ko‘tarishga olib kelishga xizmat qiladi. [7]

2.3. Iqtisodiy rayonlari va ularga iqtisodiy geografik tavsif

1. Shimoli - G'arbiy iqtisodiy rayoni

- Aholisi: 8,5 mln
- Maydoni: 210,8 km²
- Shimoli - G'arbiy iqtisodiy rayon tarkibiga kiruvchi viloyatlar: Sankt-Peterburg, Leningradskaya, Novgorodskaya, Pskovskaya.
- maydoni uncha katta emas. Iqtisodiy geografik o'rni qulay.(g'arb bilan chegaradosh va Boltiq dengiziga chiqa oladi.)
- tabiiy resurslarga uncha boy emas (slanes, boksit, fosforit va boshqalar)
- rayonning iqtisodiy markazi Sankt - Peterburg aglomerasiyasi hisoblanadi.
- mashinasozlik tarmog'i yaxshi shakllangan,
- kemasozlik, stanoksozlik, vagonsozlik, priborsozlik, tanker, trauler, energetika va elektro - texnika mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Mashinasozlik tarmog'i uchun kadrlar tayyorlaydi.
- kimyo, rangli metallurgiya, engil sanoat tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan.
- qishloq - xo'jaligi asosan, sut va sut go'sht chorvachiligi, sabzovotchilikka ixtisoslashgan. [15]



2. Shimoliy rayon.

- Aholisi: 4,7 mln.
- Maydoni: 1466,3 km².
- Shimoliy rayon tarkibiga kiruvchi viloyatlar: Kareliya Respublikasi, Komi Respublikasi, Arxangelsk, Vologodsk, Murmansk, Nenetskiy.
- maydoni katta, tabiiy sharoiti noqulay;
- Iqtisodiy geografik o'rni nisbatan yaxshi . Ya'ni Murmansk porti orqali dengizga chiqadadi, ammo o'zlashtirish uchun hududi noqulay.



- tabiiy resurslarga boy. Pechorada tosh ko'mir, Timan-Pechora rayonida neft va gaz, Kovdar, Olenegorsk, Kostomushkada temir rudasi, Hibin, Monchegorsk, Pechengada mis, alyumin, apatit,
- rayonda aholi siyrak joylashgan. Sanoat markazlari Arxangelsk, Murmansk, Vologda,
- Yevropadagi Rossiyaning zarur ruda va yoqilg'i zahiralari evropa qismida bo'lib u qora dengiz shimoli g'arbida markazida joylashgan. Volga - Viatka hududida joylashgan u erda ko'mir neft gaz metallurgiya va kimyo homoshiyolari joylashgan.
- qora metallurgiya markaziy shimoli g'arbiy hududlar Cheripovetsda mashinasozlik va qora metallurgiya mavjud
- o'rmon sanoati butun kompleksli ravishda eng yirik yog'ochni qayta ishlash va qog'oz ishlab chiqarish Kondopogada joylashgan.
- mashinasozlik umumiy olganda kam rivojlangan lekin alohida korxonalar birlashmalar holida mavjud.
- traktorlar o'rmon sanoati mashinalari Petrazavotskda, kemasozlik va uning remonti Mo'lmanskda.
- baliqchilik Murmanskda rivojlangan.
- qishloq -xo'jaligi Volgotskaya viloyatida janubiy hududlarida birlashgan ko'rinishdagi sut va go'sht ishlab - chiqarish bo'yicha oldinda
- hozirgi zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlanishida Murmansk, Arxangelsk shaxarlari muhim ro'l o' naydi.

3. Markaziy rayon

- Aholisi: 30,5 mln.
- Maydoni: 486 km².
- Markaziy rayon tarkibiga kiruvchi viloyatlar: Bryansk, Vladimirsk, Ivanovsk, Kalujsk, Kostromsk, Moskva shahri, Moskova viloyati, Orlovsk, Ryazansk, Smolensk, Tversk, Tulsk.



- Bu hudud o'zining tarixiy markazi bo'lib eng qadimiy sanoat markazlari ham joylashgan.

XIX asrdayoq bu hududda engil sanoat rivojlangan edi.

- Hududning eng rivojlangan qismi Moskva poytaxti bo'lib unda barcha tarmoqlar bo'yicha (aholi soni, ishlab chiqarish, madaniyat, ilmiy hamda oqillar darajasi) mavjud. Hudud faqatgina bular bo'yicha bo'lmasdan balki poytaxt ham uni rivojlanishiga ta'sir etgan.

- Hududning markazdaligi va barcha Hududlarga yaqinligi uning asosiy rayonligini belgilab beradi va muhim rivojlanishidagi omilidir.

Rayonda mineral resurslar kam bo'lib fosforitlar Voskresenskda torf va boshqalar mavjud. Ularni qazib olish bo'yicha juda yuqori darajadagi kadirilar mavjud.

Rayonda mashinasozlik sanoati juda xilma - xildir lekin asosiy ishlab chiqaruvchi mashinalari qishloq - xo'jaligi bilan bog'liq.

Hududda elektro - aparatlar, stanoklar, asbob- uskunalar, optik qurilmalar Krasnagorsk shahrida ishlab chiqarish rivojlangan. Elektro - aparatlar mashinasozlik Moskvada avtomobilsozlik Moskva va Yeroslavl

Shina- matorlar . Qishloq - xo'jaligi mashinasozligi Vladimirda kortoshka teruvchi kombayinlar Lubersida linatozolovchi kombayinlar Bejetsk va Tulada. Traktorsozlik Vladimir, vagonsozlik Mitishida, Yengilsanoat uskunalari Ivanovada, teplovozar Kalonada, Aviasozlik Moskva, Smolenskda mavjud.

Kimyo sanoati: Neftni qayta ishlash Rzyan, Yeroslavl, ishlab - chiqarish Yeroslavl va Klinda. Kimyoviy tolalar Rzyan, Mitishiy, Tver, Serpuxov, Kilin. Fasfaritlarni boyitish Voskresnks xo'jalik kimyo mahsulotlari Mosvada ishlab chiqarish rivojlangan lekigin ishlab - chiqarish mahsulotlar mavjud.

-Poligrafiya sanoati Moskva, Tver.

-MDH davlatlari ichidagi eng yirik transport tarmog'i mavjud. [14]

-Qishloq - xo'jaligi asosan shahar atrofidagi bog'dorchilik va dehqonchilik tarmog'i mavjud.

4. Markaziy qoratuproq rayoni

- Aholisi: 7,9 mln.

- Maydoni: 167,7 km².

- Markaziy rayon tarkibiga kiruvchi viloyatlar:

Belgorodsk, Voronejsk, Kursk, Lipetsk, Tambovsk.



- Rayon quyuq o'rmon va cho'lga hos bo'lgan bir xil tabiiy hususiyatlariga ega hudud.

- Hududning asosiy hususiyati markazga yaqinligi va Donbas shuningdek janubiy tranzit yo'llari evropaga aynan shu Hududdan o'kanligi uning Rossiyani eng g'arbiy Hududligini belgilaydi.

- rayon resursi faqat bir xil xomashyo rudasi temirdan iborat bo'lib eng yirik havzalardan biri, bundan tashqari er resurslariga ham boy.

- rayon industrial- agrar zona hisoblanadi

- asosiy sanoat sohasi bu temir rudasini qazib olish va boitish.

Rayon qazib olingan rudalarni bir qismini Cherpovets hattoki Uralga ham eksport qiladi. Qora metallurgiya to'liq shakilda Lipetsk Rossiyadagi eng katta elektrometallurgiya kombinatida qayta ishlanadi. Sanoatida mashinasozlik birlashgan birlashmalar holida bo'lib tog'-kon sanoati uchun ekskavatorlar, ko'tarma kranlar va boshqa qishloq - xo'jaligi mashinalarini Lipetsk va Varonejda ishlab chiqaradi, elektor mashinasozlik Belgorod aniq mashinasozlik esa Kurskda rivojlangan.

- kimyo sanoati Lipetsk shina ishlab chiqarish Varonjda, lak, kraskalar Tambov, kimyoviy tollar Kursk,

- oziq-ovqat shakar sanoati mavjud.

- Markaziy chernozemni rayoni Rossiyadagi eng xilma – xil qishloq – xo'jaligimahsulotlari shiningdek bug'doy, shakar, kungaboqar, makkajo'xori etishtirish bo'yicha etakchidir. Yirk shoxli molchilik, sut - go'sht, cho'chqachilik hududning asosiy mahsulotlaridir.

5. Volga – Vyatka rayoni

- Aholisi: 7,5 mln.
- Maydoni: 265,4 km².
